

Shahina Ibrohimova



TURK ADABIYOTIDA
DRAMATURGIYA

894.35

W-14

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

SHAHINA IBROHIMOVA

TURK ADABIYOTIDA DRAMATURGIYA

Ushbu o'quv-uslubiy qollanma turk adabiyotining, xususan dramaturgiyaning jahon madaniyat¹ hayotidagi o'rni va ahamiyati, dramatik asarlar namunalari, janr turlari, o'rni haqida ma'lumot berilgan.

O'quv-uslubiy majmua oily o'quv yurtlarining filologiya yo'nalishida o'qiyotgan bakalavrilar uchun tavsiya etiladi. Shu bilan birga undan o'qituvchilar, aspirant va tadqiqotchilar ham foydalanishi mumkin.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik institutining O'quv-uslubiy kengashi nashrga tavsiya etgan (21.12.2012 yildagi 3-sonli bayonnomaga)

MUQADDIMA

Turk adabiyotida dramaturgiya fani bo'yicha o'quv-uslubiy qo'llanma Toshkent davlat sharqshunoslik instituti Sharq filologiyasi va falsafa fakultetining Turkiy tillar kafedrasida tayyorlangan.

Mazkur fan bakalavriat bosqichi 4-kurs talabalari o'quv rejasidagi asosiy fanlaridan biri bo'lib, unda talabalar Turk dramaturgiyasining eng muhim qirralari bo'lgan turli yo'nalishlari, dramaturglarning hayoti va ijodiy faoliyatiga taalluqli to'liq ma'lumot va bilim hosil qiladilar.

Mas'ul muharrir:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.ALIMBEKOV

Taqribchilar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent A.TILAVOV

filologiya fanlari nomzodi, dotsent U.MUHIBOVA

Kirish

Jahon adabiyoti tarixiga nazar solar ekanmiz, drama eng qadimiy san'at turi ekanligining guvohi bo'lamiz. Dramatik tur rivoji davomida juda ko'plab janrlarning tug'ilishiga sabab bo'lgan. Uning janrlarini o'rta va kichik shakllarga bo'lib o'rganish rasmi hamon saqlanib kelmoqda. O'rta shakl-tragediya, komediya, tragikomediya, drama, melodrama. Kichik shakl – intermediya, vodevil, bir pardali pyesa, kichik inssenirovka, monodrama, dialog va sh.k. Sharq xalqlari adabiy jarayonida drama rivoji birmuncha o'zgacha kechadi. Dastlab, masxarabozlar, qo'g'irchoqbozlar, qilichbozlar, tazie', soyalar teatri, niqoblar teatri nomi bilan nomlangan dramaning ilk ko'rinishlari XIX asrning oxiri XX asr boshlariga kelibgina adabiy tur sifatida shakllana boshladi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada sharq xalqlari adabiyotida dramatik tur va janrlarning paydo bo'lishi va o'ziga xos xususiyatlari, xususan turk drama taraqqiyotida folklor an'analari va jahon dramaturgiyasidan qilingan tarjimalarning o'rni, turk milliy teatrning ilk ko'rinishlari va taraqqiyoti, dramaning nazariy masalalari, turk dramaturgiyaning hozirgi holati, mashhur dramaturglar hayoti va ijodiga oid bilimlar berilishi ko'zda tutilgan.

ADABIY JANRLAR HAQIDA

Badiiy adabiyot ifoda xususiyatiga ko'ra *lirk*, *epik* va *dramatik* singari turlarga bo'linadi. Bular hayotning qaysi tomoniga ko'proq e'tabor berishi va qaytarzda aks ettirishiga qarab bir-biridan farqlanadi. Har bir adabiy tur esa, o'z navbatida muayyan janrlardan tashkil topadi.

Adabiy asarlar turli-tuman shaklda, uslubda yaratiladi. Katta-kichik she'rlar, she'riy masallar, bailada va dostonlar bir bo'lib adabiyotning *she'riyat* degan turini hosil qiladi. Ularning barchasi ohangdor she'riy usulda, shoirlar tomonidan yaratiladi.

Ertaklar, hikoya va ocherklar, qissa va romanlar birlashib, so'z san'atining *nasr* deb atalgan turini tashkil etadi. Nasriy asarlarni nosirlar, ya'ni yozuvchilar ijod qiladi. Nasriy asarlar she'riy yo'l bilan emas, balki oddiy hikoya usulida yoziladi.

Adabiyotning yana bir turi — *dramaturgiya* deb nomlanadi. Bu turga kichik sahna asarları bo'lmish intermediyalardan tortib yirik drama, komediya, tragediya singari sahna tomoshalari kiradi. Muallif — dramaturgning ixtiyoriga ko'ra bu asarlar she'riy yo'l bilan ham, nasriy yo'l bilan ham yozilishi mumkin.

Adabiy janr(fransuzcha "Genre"- tur, jins) adabiyot rivoji jarayonida yuzaga kelgan asarlarning tasvirlash yo'llari, kompozitsion qurilishi, bayon usullari, badiiy vositalar, hayotiy hodisalarni qamrash ko'lami va miqyosiga ko'ra ko'rinishidir. Janrlar adabiy jarayon taraqqiyoti davomida turli-tuman o'zgarishlarga uchragan, ixchamlashgan, boyib borgan.

So'z san'ati avval poeziyada, ya'ni epos va lirkada, keyinchalik ularning sintezi bo'lgan dramada rivojlanib kelgan. Adabiyot tajribasida mazkur uch tasvir usuli o'zaro chatishib ketgan hollar, ularning turli-tuman ko'rinishlarida qo'llangan paytlari uchrashiga qaramay, bu turlarga xos asosiy qoidalar ming yillar davomida saqlanib kelmoqda. Adabiyotning tasviriy usullaridagi bunday turg'unlik shu bilan izohlanadiki, avvalo, uchala asosiy adabiy tur voqelik qonuniyatlarini haqqoniy aks ettirish imkoniyatlari ega, ikkinchidan, ular badiiy adabiyotning tabiatini vazifalariga to'liq mos keladi.

Epos, lirika va drama o'zaro birgalikda inson hayoti va ongini to'liq hamda

chuqur aks ettirishda bitmas-tuganmas imkoniyatlarga egadir.

Dramatik tasvir qoidalari esa tragediya, komediya, drama (tor ma'noda), vodevil, intermediya singari janrlarda yorqin namoyon bo'ladi.

Adabiy turlar qahramonlarni tasvirlash usulidir. Lirkada lirk qahramon obraz hoslil etiladi. Shu bilan birga, unda lirk personajlar ham bo'lishi mumkin. Hayot, dunyo lirk qahramon orqali aks etadi. Eposda yozuvchi odamlarni xolis, tashqaridan turib, ob'ektiv ravishda tasvirlaydi. Uning qahramoni epikdir; dramada yozuvchi o'zini chetga oladi (faqt qavs ichida «remarka» deb ataluvchchi ba'zi izohlarni havola qiladi, xolos) Hayot odamlar munozarasi tarzida namoyon bo'lib, qahramoni dramabopdir, ya'ni dramatikdir, voqeа hayotda qanday bo'lsa, o'shanday ko'rindi.

LIRIK TUR

Lirika (yunon "lira" jo'rligida kuylash) – badiiy adabiyotning asosiy turlaridan biri bo'lib, biror hayotiy voqeа-hodisa ta'sirida inson qalbida tug'ulgan ruhiy kechinma, fikr va tuyg'ular orqali voqelikni aks ettiradi. Lirk asarlarda voqelikni inson tuyg'ulariga ta'sirini tasvirlash muhim o'rinni tutadi. She'riy shakl lirikaning xarakterli xususiyati bo'lib, u kishining his-tuyg'uga to'la hayajonli nutqini ta'siriroq ifodalashga qo'l keladi. She'riy shakl lirkada ohangdorlik va musiqiylikni vujudga keltiradi.

Lirika mazmun va mohiyatiga ko'ra ikki xil bo'ladi:

Intim lirika (lot: "eng ichki", "yashirin") – unda shoir o'zining ruhiy kechinmalari va hissi olamini aks ettiradi:

Ijtimoiy lirika – unda real hayotda ro'y bergan voqeа va hodisalar tasvirlanadi. Jamiyatdagiadolatsizlik, bosqinchilik, zo'ravonlik, odamlarning beburdligi, riyokorlik, sotqinlik va boshqa shu kabi illatlar ijtimoiy lirkani yuzaga keltiruvchi omillardir.

Lirika shoirning ichki kechinmalari ifodasi bo'lib, ma'lum bir qolipga solingan, ohang jihatidan ma'lum bir tartibga keltirilgan, his-tuyg'u ifodasi sifatida vujudga kelgan o'lchovli va hayajonli ritmik nutq she'r (nazm) deyiladi.

Lirika syujeti lirkadir, ya'ni u his-tuyg'u, ko'ngil va qalb sirlari, hayajon, ehtiros,

ruhiyat, kechinma, fikr rivojini ko'rsatadi, unda voqeа rivoji yo'q, epos syujeti buning teskarisidir, ya'ni voqeа rivojidir, epikdir, boshi va oxiriga ega bo'lgan hodisadir, yaxlit va tugaldir va unda ekspozitsiya, tugun, voqeа rivoji, kulminatsiya, yechim aniq ko'rinish turadi.

EPIK TURNING JANRLARI

Voqealarni hikoya qilishdek ustuvorlik asosiga qurilgan barcha asarlarning jami- epik turni vujudga keltirgan. Shu sababli, epos, doston, ballada, masal, ertak, hikoya, qissa, povest, roman, novella, poema, ocherk feleton, pamphlet, esse, mif, rivoyat, afsona, sayohatnama, muhabbatnama, safarnoma, "xamsa", hikmatli so'z, cho'pchak, marsiya, madhiya, metal, aforizm kabi janrlar eposning mulki sanaladi. Ularni bir necha guruhlarga ajratish mumkin:

Eposning katta janrlari. Epos (yunoncha "epos" – so'z, nutq, hikoya) ning eng yirik janri **epopeya** (yunoncha "epopia" – rivoyatlar, qo'shiqlar majmui)dir. "Epopeya" xalqning faqt go'daklik davrlarida uning hayoti hali ikki qarshi tomonga – poeziya va prozaga ajratilmagan chog'da, xalqning tarixi faqt afsona bo'lgan zamonda, dunyo haqida uning tushunchalari faqt diniy tasavvurlardan iborat bo'lganda, uning kuch-qudrati va toza faoliyati faqt qahromonlik g'alabalardida ko'ringan zamonlardagina paydo bo'lishi mumkin"

Eposda xalq, millat, qabila taqdirini hal qiladigan buyuk tarixiy voqealar tasvirini topgani sababli, uning bosh qahramoni tarix sanaladi. Eposda voqeа tasvirini topgani sababli, uning bosh qahramoni tarix sanaladi. Eposda voqeа hukmron bo'ladi va u "tabiatning o'zginasi" tarzida, "taqdirning irodasi" bo'lib namoyon bo'ladi. Uni inson o'zgartira olmaydi, balki u insonni o'zining bo'ysundiradi. Homerning "Iliada" va "Odessiyasi"si, hindlarning "Mahobhorat" va "Ramayana"si, qirg'izlarning "Manas"i, o'zbeklarning "Alpomish"i yuqoridigi mulohazalarga isbotdir.

Hozirgi eposning eng katta janri romandir. Eposning hamma asosi, muhim xususiyatlari romanda bordir, faqt ayirmasi shundaki, romanda boshqa elementlar, boshqa manzara hukm suradi. Romandagi epik xarakterlar tasviri ikki kitobdan nihoya topsa – **dialogiya**, uch kitobda tugallansa – **trilogiya**, to'rt kitobga sig'sa, besh kitobga yetsa – **pentalogiya** deb ataladi.

Olamni birvarakayiga ehtiroslar tug'yonida tasvirlovchi, g'oyatda mubolag'ali sarguzashtlarga boy, romantik bo'yodqor yirik hajmdagi asar – **doston** (forscha- tojikcha so'z, ma'nosi: *nazm yoki nasr bilan yozilgan hikoya, poema; epik asar: sarguzasht, kechmish voqealar*) deb yuritiladi.

Qissa (arabcha so'z bo'lib, “*voqeiy hodisa yoki afgonalar bayon qilingan epik asar; sujetning murakkabligi jihatidan romandan ko'ra soddarog badiy asar*”) – eng qadimgi janrlaridan biri bo'lib, unda, asosan, ishqiy mazmun yetakchilik qiladi. Ayniqsa, “muayyan payg'ambar yoki avliyo, dono shaxs yoki tengsiz pahlavonlar obrazlarining ibratomuz xatti- harakatlari misolida butun xalqning tarixini idallashtirib ko'rsatish” qissalarning mohiyatini tashkil qiladi.

Povest (ruscha so'z bo'lib, *hikoya, rivoyat qilish* demakdir) ning asosiy belgisi, unda “hayotiy qamrovning romanga nisbatan torligi, hikoyaga nisbatan kengligi; shunga muvofiq sujet va kompozitsiyaning ham romanga nisbatan soddaligi, hikoyaga nisbatan murakkabligi hisoblanadi. “Romanda olamning yaxlit falsafiy konsepsiysi” bo'lishi shart bo'lsa, bu hodisaning bir qismi(parchasi)ning bir-ikki qahramon taqqidiri misolida yechilishi povest uchun yetarlidir.

Poema (yunoncha “poema” – *ijod*)da hayot va odamlar qalbi epik (voqe) va lirik (kechinma,tuyg'u) tarzda kashf etiladi. Poemada epik va lirika birlashgan holda, yaxlit liro-epik oqimni vujudga keltirib, hayotiy voqe- hodisalarning va qahramon xarakteridagi kuchning ruhi (qalbi)ni ochadi, tahlil qiladi, hayajonli ifodalaydi. Poema – lirik, epik, liro-epik, dramatik bo'lishidan qat'iy nazar, ularning barchasida hayot(davr)ning epik qiyofasi shoir shaxsiyati (lirik qahramon) qalbi orqali ochiladi; voqe hukmronlik qiladi, uning hukmiga asosan qalb qo'shig'ini kuylaydi. Lekin bu qo'shiq doston janriga nisbatan ixcham, anchayin kichik, ayni paytda, o'ta real, o'ta lirkadir.

Eposning kichik janrlari.

Ballada (grek. “*balare*” so'zidan fran. “*baler*” so'zi kelib chiqqan, ma'nosi: 1. *Tovushga taqlid qilish*, masalan *ma'rash*, 2. *raqs tushish*) janridagi bosh xislat -

kutilmagan sujet (voqe)ning kutilmagan final (xotima) bilan tugashiga, qahramon qalb kechinmalari va ruhiyatning dramatic izhoriga bag'ishlangan asardir; undagi bu ikki (epik va lirik) holat – davr va qalb dramasi kashfi birlashib, qalb faryodi izhoriga aylanganda ballada tug'iladi. Unda epik tasvir (yetakchi) va lirik tasvir (ichki tug'yon; ikkilamchi) nisbati buzilmasligi, lirizm voqaaning ichida yashashi lozimligi shart. Bu epik turning bosh qonuniyatidir.

Masal (arabcha – namuna) voqealikni allegoric (kinoyaviy) va simvolik (ramziy) obrozlar yordamida ifodalovchi, real turmush va odamlarning ko'rinishlari, xarakter qirralarini kinoya, kesatish, kulgu, g'azab kabi xususiyatlar vositasida ochuvchi epik janrdir. Masal janrinining asoschisi Ezop bo'lgani sabab, u “Ezop” nomi bilan ham yuritiladi: masal tili Ezop tili kabi . Ezopdan keyin bu janrnii Lafonten (fransuz), Krilov (rus), Gulhaniy (o'zbek) lar yangi bosqichga ko'tardilar. Masal, ko'pincha, voqealik va odamlar to'g'risidagi haqiqatni ochiqchasiga aytishning imkoniyati yo'q paytlar ko'plab yaratiladi va Ramzli tarzda (pardali qilib) bu haqiqatlarga ishora etiladi.

Latifa (arabcha – *nozik, yoqimli, zarif*) xalqning o'tkir mushohadasi asosida qurilgan yoqimli va nozik kulgili eng kichik va nodir “*hikoya*” (“*zarifa*”, “*ajiba*”) sidir. Unda eng qisqa shakldagi qiziq voqeanning bir episodi nasriy yo'lda kulgili qilib aytildi, epizod qiziqarli umumlashmagan, muhim fikrga, yorqin ifodaga boy bo'ladi. Bu xususiyati topqirlik va mahorat bilan yaratilgan bo'lsa, kishi xotirasida uzoq saqlanadi. Ayni paytda og'izdan o'g'izga tez o'tib, yanada sayqallashadi.

Latifaning eng kichik ko'rinishi matbuotda “*xanda*” nomi bilan yuritiladi. Xandalar biron- bir epizodning “*qaymog'ini*” – mohiyatini birdaniga kulmanatsion cho'qqiga chiqaradi va dialogik nutq vositasida uni kulgili tarzda yechimga olib keladi.

Hikoya (arabcha so'z bo'lib, ma'nosi: 1.*biror narsaning og'zaki bayoni, tafsiloti*; 2. *nasriy yo'l bilan yozilgan kichikroq badiy asar*) – Izzat Sultonning asosli ta'kidlashicha , latifa mazmuniga kirgan voqeadean kattaroq, ammo

povestga mazmun beruvchi voqeadan kichikroq sarguzashtni, ko'pincha kishi hayotida bo'lган bir epizodni tasvirlaydi. Darvoqe, "u minglab bo'laklarga bo'lingan romandir...kishilik taqdirining payonsiz poemasidan bir epizod... shunday voqeа va hodisani tanlab oladi va o'zining tor ramkasida ifoda etadi" (V.Belenskiy). Hikoyaning eng ixcham ko'rinishi novella (ital. "novella" – yangilik) deb yuritiladi. "Xaraktening muayyan vaziyatdagi holatini voqeanning keskin burulis nuqtasida, dinamik sujet, kuchli dramatizm, kutilmagan yechim asosida ko'rsatish – hikoya(novella) uchun eng xarakterli xususiyatdir"

DRAMATİK TUR. DRAMATİK TUR JANRLARI.

Drama (yun. Drama – harakat so'zidan) – 1) badiiy adabiyotning uch asosiy turidan biri (epos, lirika bilan bir qatorda). Drama teatrga ham taalluqli. Syujetlilik, harakatlarning ziddiyatga asoslanishi va ularning sahna, epizodlarga bo'linishi, bayonning yo'qligi, personajlar munosabatlarining o'zaro so'zlashuvga asoslanishi dramaning o'ziga xos xususiyatidir. Ijtimoiy (konkret tarixiy va umuminsoniy) muammolarni aks ettiruvchi dramatik ziddiyatlar qahramonlarning xatti – harakatlarda, avvalo *dialog* va *monologlarda* ifodalanadi. Drama matni ko'rishga (imo-ishora, harakat) shuningdek, eshitishga mo'ljallanadi: u sahnaviy makon, zamon va teatr texnikasi imkoniyatlarga ham muvofiq keladi. Drama adabiy asar sifatida aktyor, rejissyor tomonidan sahnada o'z talqinini topadi. Drama tufayli teatr san'ati yuzaga kelgan va u kino san'ati uchun ham asos bo'lgan

Dramatik tur esa uch asosiy adabiy turning biri bo'lib, u *tragediya*, *komediya*, drama (janr sifatida) va tragikomediya kabi janrlarga bo'linadi.

Tragediya (grekcha tragoidia) – dramatik asar turlaridan bo'lib, unda ilojsiz vaziyat, halok etuvchi og'ir va teng bo'lмаган kurash negizida kahramonning xarakteri ochib beriladi. Tragediya dramaning eng qadimgi turlaridan biridir. U qadimgi Gresiyada vujudga kelgan va o'z nomini xudi Dionis sharafiga o'tkazilgan bayramdagi xalq tomoshasidan olgan. Dionisga qurbanlik uchun echki olib kelishar ekan (echkini greklar grekcha tragos deb ataydilar). Bu marosim raqsga tushish, Dionis iztiroblari haqida rivoyat aytish va qurbanlikka chiqarilgan echki haqida qo'shiq aytish (qo'shiq grekcha ode deb yuritiladi) bilan o'tkazilgan.

Tragediya ikki so'zdan: tragos – echki, ode – qo'shiqdan kelib chiqqan. Keyinchalik tragediya avvalgi xususiyatini o'zgartirib, maxsusu teatr tomoshasiga aylangan.

Grek fofianavslaridan Esxil, Sofokl, Evripid tragediyalari mashhurdir.

Komediya (grekcha komodia – quvnoq tomosha, qo'shiq so'zidan) dramatik asarning bir turi bo'lib, unda hayotdagi turli hodisalar tasvir etiladi, ijtimoiy yoki oilaviy mojarolar, kishilar xarakteridagi bema'ni, kulgili xususiyatlar masxara qilinadi.

Komediya dramatik asarning turi sifatida qadimgi Gresiya quvnoq xalq tomoshalari zaminida vujudga keldi. Qadimgi greklar sharob va shodlik ma'budi Dionis sharafiga atab, karnaval yurishlari qilib, bu yurishlarda qo'shiq aytganlar, raqsga tushganlar. Komediya hayotning eskirgan taraflari ustidan yangilikning mashara qilib kulishidir.

Tragikomediya – tragediya xususiyatlari va komediya elementlari birligida aks ettirilgan dramatik asar.

Dramatik asarlar dialoglarga asoslanadi. Roman, povest, hikoya, ocherk avtorlari asarda tasvirlangan voqealarning o'rni, kishilarning xarakteri va qilmishlari haqida hikoya qilib berish bilan birga, ularni o'zaro gapirtiradilar. Dramada esa avtorning hikoya qilishi ham personajlarning gaplari orqali yuzaga keladi. Lirik asarlarda esa kishining ichki kechinmalari, fikri, histuyg'usi ifoda etiladi. Dramatik asar avtori o'z qahramonlarning lirik kayfiyatlarini ham ularning nutqi va xatti-harakati orqali jonlantiradi. Dramaning adabiy tur sifatidagi o'ziga xos xususiyatlardan biri uning sahnada ijro etilishi hisoblanadi. Shu jihatdan drama kishini faqat harakatda ifodalaydi. V. Belinskiy aytganidek dramatizm faqat so'zlashuvdagina emas, balki bir biri bilan so'zlashayotganlarning jonli harakatlardan iboratdir. Shuning uchun drama tekisti bilan so'z san'atiga mansub bo'lsa, sahnada ijro etilishi bilan roman, povest kabi adabiy janrlardan farq qiladi. Dramada har bir o'brax o'z xarakteriga xos hislatlarni, o'z tili, xatti harakati orqali ochadi. Shunga ko'ra dramada, epos, lirika turlariga mansub janrlardan tubdan farqli ravishda, avtor nutqqa, avtor bayoni bo'lmaydi. Dramada avtor nutqi faqat

remarkalarda beriladi. Kitobxon yoki tomoshabin dramada sodir bo'layotgan voqealarning qahramonlarning o'zidan payqab oladi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonlarining hayoti haqida hikoya qilmaydi, balki ularni harakatda ko'rsatadi.

Dramadagi barcha harakatlar, konflikt va deologlar qahramonlarning xarakterini ochishning asosiy vositalari sanaladi. Dramatik asar qahramonlari o'zlarini faqat xarakatda nomoyish qiladilar, ularning nutqi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, qahramonlar harakati bilan bevosita bog'lanadi. Dramatik asarlarda intonatsiya, pauza va ovozning baland-pasligi katta ahamiyatga ega bo'lib, nutqning o'ziga xos bu xususiyati sahnada yanada aniqroq ko'rindi. Dramaturk personajlarning xarakatini ochib berish uchun zarur bo'lgan voqeahodisalarnigina ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, olingan voqealarni shaxslar o'rtasidagi kanfliktni asoslash uchun xizmat etadi. Tasfirlangan masalaga bevosita aloqasi bo'limgan yoki xarakat rivojini susaytiruvchi boshqa hayotiy faktlar olinmaydi. Shuning uchun ham dramada biror hayotiy voqealarni shunday markazlashtiradiki, tomoshabin katta-katta voqealar mohiyatini ham kichkina shtrixlardan anglab oladi.

Drama syujeti o'zining rivojlanish tezligi va g'oyat siqiligi bilan xarakterlidir. Dramatik asar syujeti o'ziga xos bu xususiyati bilan epik asarlar syujetidan farq qiladi.

Shuningdek drama epos va lirkadan yana shu bilan farq qiladiki, dramatik asar teatr uchun yoziladi va uning takomil nuqtasi sahnaga yetib borganda ko'rindi. Dramatik asar sahnada qo'yilmas ekan, tomoshabin uning xarakat va holatini kuzatib, so'zlarni tinglamas ekan, u xaqiqiy, badiiy asar darajasiga ko'tarila olmaydi. Binobarin, teatr ham o'z navbatida dramatik asarga ta'sir ko'rsatadi va uni malum darajada sahna qonunlariga bo'ysundiradi. Dramatik asarlar bo'lim, ko'rinish kabi qisimlarga bo'linadi, bu esa dekoratsiya hamda kostyumlarning almashinib turishini taqazo etadi.

Pyesa – (fr. Pyesa – butun yoki ulush so'zidan) – xil sahna asarlari (tragediya, drama, komediya va boshqalar) ning umumiy nomi. Biroq ko'pincha, drama, tragediya yoki komediya kabi janrlarga kirmaydigan, ularning qat'iy qoidasiga mos bo'limgan turli sahna asarlari ham pyesa deb yuritiladi. Didro maishiy temalardagi har qanday sahna asarlarini piyesa deb nomlagan edi. Kichik hajmdagi muzika asarlarining bir turi ham Pyesa deb yuritiladi.

Dramaturgiya janrlaridan biri. Ma'rifatparvarlik davri (Didro, Lessing)dan boshlab Drama badiiy adabiyotning yetakchi janrlaridan biriga aylangan. Unda insonning ziddiyatli hayoti ifodalanadi. Tarixiy Dramaga fojiaviylik xos. Dramaturgiya – yozuvchilarning drama shaklida yozgan asarlarining yig'indisi. Biror xalq yoki tarixiy davrga xos dramatik asarlar ham dramaturgiya deb yuritiladi: turk dramaturgiyasi, Nomiq Kamol dramaturgiyasi, Xaldun Taner dramaturgiyasi, urushdan keyingi davr dramaturgiyasi kabi.

TURK XALQ DRAMATURGIYASIGA KIRISH

Turk xalq dramasi nihoyatda boy va xilma-xil bo'lib, turk tradision teatrining asosini tashkil qiladi. Xalq dramasining asosiy xususiyati shundaki, unda ma'lum hajviy syujet, grimm va jonli ijrochisi, ikki va undan ortiq aktyor tomonidan, kostyum, grimm va jonli dekoratsiya yordamida ijro etiladi. Xalq og'zaki dramasining ijrochisi, aktyori masharaboz va qiziqchi deb yuritiladi.

Masharaboz va qiziqchilar hayotda uchraydigan, ro'y beradigan eng xarakterli, kulgili voqealarni, tomoshabinga gavdalantirib beradilar. Xalq og'zkai teatrida bosh ijodkor hisoblangan masharaboz, qiziqchi va qo'g'irchoqbozlar yaratuvchilik, ijrochilik hamda tashkilotchilik vazifasini bajargan.

Masharabozlik va qiziqchilik xalq og'zaki teatrining bir turi bo'lib, masharaboz va qiziqchi shu teatrining artisdidir.

Teatr o'lkalar va jamiyatlarga ko'ra juda farqli, o'ziga xosliklarini k'orsatgani uchun umumiy holda bunday ta'rif bera olishimiz mumkin. Teatrning boshqa adabiyot turlaridan farqi, bir qancha san'atning bir joyga kelib o'rta ga chiqishidir. Bu san`atlar – rasm, musiqa, aktorlik san'ati, raqs va boshqalar.

TEATR TUSHUNCHASI

Teatr - (yunoncha theatron - tomoshagoh) – 1) san’at turi: uning o’ziga hos ifoda vositasi aktyorning omma oldidagi o’yini jarayonida yuzaga keladigan sahnaviy voqeadir. Teatr tushunchaning ma’nosi keng. Teatr deganda, avvalambor san’atning kattakon bir turini tushunamiz. Shu bilan birga teatr – bu tomosha – spektaklning o’zi, tomosha ko’rsatiladigan joy, spektakl qo’yiladigan bino hamdir. Hech bir san’at teatr o’rnini bosolmaydi. Chunki teatrda tomoshabin bir to’p iste’dodli kishilar bilan birvarakayiga jonli muloqotda bo’ladi. Sahna asarining ta’siri juda kuchli.

Teatr san’tida ham boshqa san’antlarda bo’lganidek xalq hayoti, tarixi, dunyo qarashi aks etib, jamiyat taraqqiyoti, ma’naviyati, madaniyati bilan bog’liq holda o’zgarib takomullashib boradi. Teatr asosida og’zaki yoki yozma dramaturgiya yotadi. Teatr sentetik san’at bo’lib jamiyat hayotida, tomoshabinlarning ma’naviy va estetik tarbiyasida muhim o’rin tutadi. Unda dramaturgiya, musiqa, tasviriy san’at, raqs, me’morlik ajralmas birlikni tashkil etadi. Teatrning muhim vositalaridan biri sahna nutqidir. Aktyor qahramonning piyesadagi so’zlarini o’zlashtirib olar ekan, qahramon qiyofasida, holatlarda turib uning nutqiy tafsifini yaratadi, boshqa personajlar bilan muloqatga kirishadi. Sahna nutqi xarakterlarning ochilishida, asar mazmuni, konfliktning yoritilishida muhim o’rin tutadi. Sahna asarlarining yaratilishida teatr rassomligi (stenografiya) ning hissasi katta. Rassom asar mazmuni rejissor yechimidan kelib chiqib dekoratsiya yaratadi. Teatrda musiqaning ham o’rni katta, tomosha turi va janriga bog’liq holda u turli vazifani bajaradi: dramatic spektakllarda yordamchi vosita bo’lsa, operetta, musiqali dramada so’z bilan barobar huquqqa ega, opera va baletda esa hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Teatr uzoq tarixga ega bo’lib uning asosiy unsurlari (boshqa qiyofaga kirish, diolog, to’qnashuv kabi) insoniyatning ibtidoiy davrida ovchilik, va mehnat diniy marosim, bayramlar bilan totemizm, animism kabi ibtidoiy dunyoqarash va ajdodlarning ruhiga sig’inish bilan bog’liq holda shakllangan. Yunoniston, Hindiston, Turonda mil.av. V asrdayoq teatr jamiyat hayotida muhim o’rin tutgan. Hindistonda teatr sanskrit teatr xalq teatr shakllarida

hamda “Mahobhorat” va “Ramayana” dostonlari bilan bog’liq holda rivojlangan dramaturgiya va sahna san’ati haqida “natyashanstra” nomli risola yaratilgan. Keyinroq teatr Yaqin Sharq va Rimga ham yoyildi. ayniqsa Rimda teatrning yangi shakl va turlari yaratildi. G’arbiy Yevropada teatr san’atining dastlabki namunalari sayyor aktyorlar – jonglyorlar ijodida, Rossiyada – skomoroxlar faoliyatida yuzaga kelgan. Uyg’onish davrida vujudga kelgan drama yangi shakli professional turning shakllanishiga zamin yaratdi.

Teatrning quyidagi turlari (masxara, taqlid, zarofat), qo’g’irchoq o’yin (chodir jamol, chodir hayol, fonus hayol) bandini tomosha tizimi sifatida tashkil topdi.

Teatr san’ati hayotni, voqealarni, turli kurashlar va ziddiyatlarni, ichki kechinmalarni dramatik xatti-harakatlarda, aktyor ijrosi orqali aks ettiradi. Bunda yozuvchi tomonidan yozilgan pyesa yoki librettoga tayaniladi. Pyesani rejissyor sahnalashtiradi: rollarni aktyorlarga taqsimlab beradi, ular bilan mashqlar o’tkazadi, rassom, libos tikuvchi, nur sozlovchi, musiqa tanlovchi (yoki kompozitor) va boshqalar bilan ish olib boradi. Pirovardida ko’pchilik bo’lib tayyorlangan sahna asari tomoshabinga ko’rsatiladi. Aktyorlar sahnada yuz berayotgan voqealarga berilib, har xil fe’l-atvorli kishilarning qiyofalarini gavdalantiradilar, tomoshabinlarni sezib tursalar ham, sezmaslikka olib o’ynaydilar. Sahnada hayot, vogelik birmuncha bo’rttirib aks ettiriladi.

Teatr san’atining turlari ko’p. Bular – drama teatri, opera, balet, musiqali drama, musiqali komediya, operetta, yosh tomoshabinlar teatri, qo’g’irchoq teatri, radio teatr, televizion teatr, estrada teatri, maydon teatridir. Teatr asarlarining janrlarining ham turlari ko’p. Asosiyalar: drama, tragediya, komediya. Ammo teatr yo’nalishi, turiga bog’liq holda ular ko’payib ketadi. Chunonchi, fars, buffonada, tragikomediya, xronika, myuzikl, tarixiy drama, ertak-pyesa, folklor-etnografik tomosha, sahnaviy hazil kabi janrlar bor.

Teatr juda qadim zamonalarda paydo bo’lgan. Ibtidoiy jamiyatdagi mehnat va dunyoqarashlar bilan bog’liq marosimlar va o’yinlardayoq teatrning boshqa bir qiyofani gavdalantirish, taqlid qilish, niqob, «ezgu» va «yovuz» kuchlarning o’zarо

tortishuvini ko'rsatish, dialog kabi unsurlari paydo bo'lib, mukammallahib borgan. Teatrning sof tomosha shaklida ko'rinishi dastlab qadimgi Sharqda yuz bergen. Hindiston, O'rta Osiyo, Xitoy, Indoneziya, Yaponiya, Koreya, Birma, Vyetnamda teatr tomoshalarining xilma-xil shakllari yaratilgan. Teatr miloddan avvalgi 5-asrda Yunonistonda paydo bo'lgan. Yunon teatri davlat tomonidan uyuşhtiriladigan bayrlarda ko'rsatilgan.

Shundan boshlab teatr san'ati juda katta taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Dramaturgiya, aktyor ijrochiligi rivojlanib borgan. Rejissyorlik paydo bo'lgan. Usti ochiq maydon teatrlari o'mini usti yopiq teatr binolari egallagan. Sahnaning ko'rinishi, texnikasi o'zgarib borgan. Ijrochilik, sahnalashtirish usulblari yangilanib turgan.

Teatr san'ati, bir mucha boshqa shakllarda bo'lsa-da, musulmonlik davrida ham yashab, o'ziga xos shakllarda taraqqiy etdi. Qissaxonlar, voizlar, maddohlarning ma'rakalari, masxara, taqlidchi, zariflarning chiqishlari aholi madaniy hayotida muhim o'rinn tutgan.

An'anaviy teatrning shakllari, namunalari butun 20-asr davomida yashab, bizning davrimizgacha yetib kelgan. Shu kunlarda ham o'z uyushmalariga ega bo'lgan yohud yakka holda ijod qiluvchi bir qator iste'dodli qiziqchilar bo'lib, ular ma'lum darajada qadimgi teatr an'alarini davom ettirib kelmoqdalar.

TURK TEATRI TARIXI

Turk teatri uzoq tarixga borib taqaladi. Turk teatrining birinchi boshlang'ich tarixining boshlang'ich davri XVI asrga borib taqaladi. Tatqiqotchilarining aytishlaricha aynan mana shu davrda "Medahlik" teatri yuzaga kelgan. Bu teatr Renesans davridagi italyan teatri bo'lgan "Komediya del-arte"ga juda o'xshash. Turk teatrining eng mashhurlari "Meddah", "Karago'z", "Qo'g'irchoq" teatrlari dunyoning eng mashxur teatrlaridan biriga aylandi. Keyinroq, XIX asrda, Usmonli davrida xalqning urf-odatlari "Ortaoyun" teatrida nomoyon bo'lgan.

Mana shu davorda turk yozuvchilarining yozgan pyesalari sahnalashtirila boshlandi. Turk teatriga katta hissa qo'shgan nomoyondalaridan biri bu Shinosisidir. Aynan «Şair Evlenmesi» piesasi turk xalqining urf-odatlari, an'analrining

o'zgarishiga sababchi bo'lgan. Usmonli imperiyasining oxirgi yillarida teatrlar Turkiyaning boshqa shaharlarida ya'ni Izmir, Bursa, Istanbul va boshqa shaharlarning madaniyat markazlarida qo'yila boshlandi.

Respublika davrida teatr faoliyatining yuritilishida 1914-yilda faoliyat ko'rsatayotgan Darulbedaiye Osmaniye» nomli konservatoriya katta ta'sir kuchini ko'rsatgan. 1927-yilda ana shu konservatoriya yordamida turk teatri faoliyatini yuritgan. Yozuvchi Muhsin modernizatsiya va teatrning tanilishida kata xizmat ko'rsatdi. Uning bu xizmatlari natijasi sifatida "Istanbul teatr"ini va 1935-yilda barpo etilgan bolalar teatrini misol qilib keltirishimiz mumkin. Aynan shu davrda Anqarada "Anqara Davlat Konservatoriya"si tashkil etildi.

Taniqli bo'lgan xususiy teatrlardan "Enisa Fosforoglu", Hadichaman Yeditepa aktyorlari, madaniyat markazlaridan Xodri Meydan, Ferhan Shensoylarni sanab o'tishimiz mumkin.

1960-yilda teatr sohasida xaqiqiy qobiliyat egalari tanila boshlandi. Bu qobiliyat egalari ichidan Xaldun Taner siyosiy teatr kabaresiga o'zining katta xissasini qo'shdi. U 1964-yilda "Keshanli Ali haqida afsona" teatrini xalqga nomoyon etdi. Yana shunday xizmatlari bilan tanilgan Nejati Jumali, Turan Oflazogli, Gungor Delimanlarni ham eslab o'tish joizdir.

Usmonli davrining 16 asirda Xindiston va Misir davlatlari ta'sirida Qorako'z teatri mashxurlik cho'qisiga chiqqan edi. Pyesada qo'g'irchoqlar, qo'qo'g'irchoqlar va mahsus chiroqli dekoratsiyalardan foydalanilgan. "Qorako'z" teatrlarining o'ziga xos tarafi shuki ular ochiq maydonlarda ijro etilgan. Qo'g'irchoqlarga parda ortidagi aktyorlar yordamida ovoz berilib boshqarilgan. 19-asr o'rtalarida Usmonli imperiyasi davrida g'arb madaniyatini tez o'zlashtirib, o'zida isloh etaboshladi. Xozirgi zamonaviy teatr ham eski davr dramaturgiyasiga va pyesalari ta'siri ostida rivojlangan. (1860) «Şairin Evlenmesi» asarining mualifi Ibrohim Shinosi Turk drammaturgiyasining asoschisidir.

AN'ANAVIY TURK TEATRI

1. "Köylü" (qishloq) teatri an'anasi.

Xalq teatri asosan qadimgi diniy udumlar qoldig'i sanaladi. Ularning teatrga xos jihatni kishilarning boshqa shaxs rolini ijro etishida ko'rindi. Bunda tashqi ko'rinishni o'zgartirish, yuzni bo'yash, niqob va boshqa jihozlardan hamda so'zlardan foydalaniladi. Ayrim holatlarda xatti-harakatlar va voqealar yoki ziddiyatlar ijro etiladi.

Ba'zan ziddiyatli holatlар yo ikki kishi o'rtasida (bunda bir tomon oq, ikkinchi tomon esa qora qilib ko'rsatiladi) yoki guruhlar o'rtasida kuzatiladi. Masalan, turkman qabilalari sanalgan Baroq, Eliboy va boshqalar tomonidan ijro etiladigan "Arab o'yini"ning qisqacha mazmuni quyidagicha: yigitlar to'yillarda ikki guruhga bo'linadi. Birinchi guruh turklar, ikkinchi guruh esa arablar rolini ijro etadi. Dovul jo'rligida olov atrofida o'ynayotgan arablar turklar hujumga o'tgach, u yerdan qochishadi va maydonni turklar egallaydi. So'ng navbat arablarga keladi. O'yin shu tarzda qizg'in tus oladi. Turklar havoga qarata o'q uzishadi. Bu paytda arablar o'rtasida kelishmovchilik yuzaga kelib, bir-birlari bilan janjallahishadi. Bir-birining yuziga tuflab, arabchaga o'xshatib marsiyalar aytishadi. Bu paytda turklar hujumga o'tib, ularning barchasini qo'lga oladi. So'ng arablarga jazo berishadi.

Yana oq va qora kuchlar asosiga qurilgan Niydening Bor shaharchasida kulollar tomonidan ijro etilgan "Meshkoblar o'yini" ham juda qiziqarli. Bunda ham ishtirokchilar ikki guruhga bo'linadi. Birinchisi meshkoblar, ikkinchisi echkilar. Ishtirokchilar echki terisidan tayyorlangan meshlarni bir-biriga urib o'zaro bahslashishadi. Yerga yiqilgan ishtirokchi o'yindan chiqadi. Avvaliga ishtirokchilar o'zilari uchun kurashishsa, keyinchalik o'ziga sherik tanlashadi. Bir qism ishtirokchi echki terisini yopinib, bo'yniga qo'ng'iroq taqib, boshlariga teri qalpoqlar kiyib, yuzlarini qoraga bo'yab yoki niqob taqib o'yinga aralashishadi va meshkoblarni qurshab olishadi. Qo'llaridagi juvoldizlar bilan tashqaridagilarning o'yinga aralashishiga yo'l qo'yaydilar. Meshkoblar atrofida raqsga tushib

aylanishadi. Bu o'yin hozir o'ynalmaydi. Ko'rini turganidek, unda ham oq va qora kuchlar ziddiyati mavjud.

Bu o'yinlarning o'ziga xos jihatni ularning kun va tunning tenglashuvi, qish o'rtasi, yangi yil singari ma'lum vaqtarda o'tkazilishidir. Biroq keyingi paytlarda bu xususiyatini ham yo'qotib, faqatgina o'yin-kulgi uchun o'ynalgan.

Qadimgi turk taqvimida 25 dekabr "Avvali Konkalos", 6 yanvar esa "Oxiri Konkalos" deb yuritilgan. Turklar uning Noeldan 12-kechaga qadar o'z ta'sirini ko'rsatadigan yovuz ruh ekaniga va borgan joyida barakaga putur yetkazishiga ishonishgan. Yovuz ruhni uylaridan uzoqlashtirish uchun esa zanjirlar orqali shovqin ko'tarishgan. Yevropada 25 dekabr-6 yanvar oralig'i yovuz ruhlar quviladigan kunlar sanaladi. Shuning uchun ham ushbu kunlarda mash'alalar yoqilib, shovqin ko'tariladi.

Trabzon atroflarida dekabrning 7-19 kunlarida "Karakansilo o'yini" o'ynaladi. Insonlarning e'tiqodiga ko'ra, mana shu kunlarda ovloq joyda yurganlar insonga ham, hayvonga ham o'xshamaydigan, uzun bo'yli va cho'ziq kulohli jonzotga duch kelishadi va uni Karakansilo deb atashgan. O'yinda oq sallali, yasama soql, qo'lida tayoq, eski kiyim kiygan keksa yoshli kishi hamda ustiga egar o'rnatilgan, bo'yniga qo'ng'iroq osilgan tuyu bo'ladi. Olovkash uzun bo'yli, boshida uzun kulohi, qo'lida tayog'i bo'lib, yuzini bo'yab oladi. Tayog'i bilan olovni qo'zg'aydi. Qolaversa, bir yigit va yuzi yopilgan qiz bo'ladi. Sovg'a to'plovchi (Armug'onchi) qop ko'tarib oladi. Yigit va qizning "xoron" o'ynashi uchun yana cho'pon ham bo'ladi. Kechasi ishtirokchilar o'zları bilan bir ayolni olib, hammaning eshigini taqillatishadi. Uy egalari bilan o'sha ayol o'rtasida so'zlashuv bo'ladi va uy egasi ularni uyga taklif etishadi. Keksa kishi xonaning bir burchagida o'tiradi. Xoniga kirgan tuyaning ustiga minadi. Olovkash qo'lidi tayoq bilan olovni qo'zg'aydi. Yigit bilan qiz "xoron" o'ynashadi. Tashqaridan dovul ovozi eshitiladi. Sovg'a to'plovchi ostonada kutib turadi. Uy egasi sovg'a bergunga qadar o'yin davom etadi. Uy egalari uyga keluvchilarni, ayniqsa qizni tanishga harakat qilishadi. Ishtirokchilar bilan tomoshabinlar o'rtasida yolg'onidan

janjal bo'ladi. Shu tariqa butun qishloqni aylanib chiqishadi. Sovg'alar ishtirokchilar o'rtasida taqsimlanadi. Agar biror yegulik berilgan bo'lsa, birlgilikda yeyiladi. Bu yerda ishtirokchilarning gapga chechanligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo Onado'lida keng tarqalgan uch muhim mavzuga e'tibor qaratish lozim. Ular: 1.O'lib-tirilish 2. Qiz o'g'irlash 3. O'lib-tirilish + qiz o'g'irlashdir.

1. "O'lib-tirilish". Bu o'yin ikki raqib o'rtasida kechadi. Raqiblardan biri o'ladi, so'ngra sehr-jodu yordamida yoki biror sabab bilan tiriladi. Ko'pincha tomoshabinlar o'lgan kishi uchun aza tutishadi, marsiya aytishadi. U tirilgach esa sevinishadi. Bu Onado'lining deyarli barcha hududlarida turli nom va turli shakllarda mavjud. Ushbu hodisa nabotot va hayvonot olamining tug'ilib o'lishi bilan bog'liqidir. Bu bilan bog'liq ilohlar Ular Dionis, Adonis, Attis va Osirisdir. Xristianlikda o'lib tiriluvchi Iso ham shuning ramzidir. Babilonning diniy adabiyotida Temmuz yoki Adonis har yili o'ladi. Uning sevgilisi yoki onasi iloha Ishtar baxtli tuproqni tark etib, yer ostiga kirgan ilohni qidiradi. U yo'qligida barchada sevgi hissi o'ladi, hayvonlar ko'payishdan to'xtaydi. Ularning qaytib kelishi bilan esa butun tabiat uyg'onadi.

Yuqorida o'yinning turli shakllari mavjudligi qayd etilgan edi. Ishtirokchilar soni ko'payishi yoki kamayishi, nomlari o'zgarishi mumkin. Ushbu o'yin "Qiz o'g'irlash" bilan davom etadi.

Onado'lidiagi o'lib-tirilish bilan bog'liq o'yinlarda ba'zi holatlarda tabib qahramon ham bo'ladi. Tabib qadimgi sehr-jodu kuchiga ega bo'lgan hakimning qoldig'i sanaladi. "Bitlis zeybeklari"da bir erkak va ayol bo'ladi. Ayol nozkarashma qilib turganda erkak qo'lidiagi xanjar bilan ayolni o'ldiradi. Qishloq oqsoqoli tabibni chaqiradi. Tabib ayolning oyog'idan ushlaganda boyagi kishi tabibni uradi. Tabib jandarm kuchi bilan ayolni tuzatadi. Uni bir joyga yashirishadi. O'yinning nihoyasida kishi ayolni topadi va birlgilikda o'ynaydilar. Bu turdag'i o'yinlarda ba'zan ishtirokchilar hayvonlar shakliga kirishadi.

2. "Qiz o'g'irlash". Ikkinci muhim mavzu qiz o'g'irlashdir. Qishloqlarda qiz o'g'irlash ko'p uchraydigan holat bo'lgani bois xalq ushbu holatni ko'rsatuvchi o'yinlar yaratishgan. Biroq bu o'yin ham yuqoridagi holat singari Eleusis va shu kabi marosimlar bilan bog'liq. Afsonaga ko'ra bug'doy ilohasi Demetraning qizi Kore o'g'irlab ketiladi. Ona aza tutib, qo'lida mash'ala bilan qizini qidiradi. Demetra og'ir qayg'uga cho'mib, dalada hech narsa bitmay qo'yadi va xalqning ochlikdan sillasi quriydi. Pluton Korega anor yedirib, uni yer ostiga bog'lab tashlaydi. O'simliklar singari yilning uchdan bir qismini yer ostida o'tkazadi. Qolgan qismida esa yer yuziga chiqib, onasi bilan ko'rishadi. Ona-qiz qovushganda osmondan yomg'ir yog'adi, yerda ekin bitadi. Garchi o'yinning assosi mana shu afsonaga borib taqalsa-da, qiz o'g'irlash odati qishloqda keng tarqalgani bois asosan ushbu hodisani jonlantirish maqsadida o'ynaladi xolos.

3. "O'lib-tirilish" + "Qiz o'g'irlash". Ba'zan "O'lib-tirilish" bilan "Qiz o'g'irlash" bir paytning o'zida o'ynaladi. Bu bilan mo'l-ko'llikni asos qilib olgan ikki mifologik mavzu o'zaro birlashtiriladi.

4. "Ko'sa o'yinlari". Ushbu nom ostida birlashtirilgan o'yinlar faqatgina nomida "ko'sa" so'zi bo'lgani uchun emas, balki umumiyo vazifaga ega bo'lgani bois ham bir guruhg'a birlashtirilgan. Bu holatni bizga qo'shni bo'lgan madaniyatlarda ham ko'rishimiz mumkin. Ba'zida garchi nomi ko'sa bo'lsa-da, funksiyasi jihatdan bunga mos kelmaydigan o'yinlar ham mavjud. Asarning kirish qismida tilga olingan Karsdag'i ikki o'yin so'zimizga misoldir.

"Ko'sa" – forscha so'z bo'lib, "soqoli chiqmagan erkak"ka nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, turk xalq ertaklarida salbiy qahramonlardan biri ko'sa hisoblanadi. Onado'lida ushbu nomga ega bir qator o'yin mavjud. Biroq ularning ramziy ma'nolari va vazifalari har bir hududda turlichadir. Avvalo yil so'ngida o'tkaziladigan marosimda o'ynaladigan o'yin ustida to'xtalaylik. Bu o'rinda "eski yil" va "yangi yil" deganda, sovuq kunlarning chekinib, tabiatning uyg'onishi nazarda tutiladi. Ushbu marosim hududga ko'ra turli vaqtarda o'tkazilishi mumkin, ammo Onado'lida asosan fevral oyining "chilla" deb nomlangan kuniga

to‘g‘ri keladi. O‘yinda qirol, shoh, hokim, amir tanlanadi. Ular eski yilni ifodalaydi. Vaqtinchalik ularning har bir amri, har bir so‘zi bajo keltiriladi. Biroq ma‘lum muddat o‘tgach, ularga boshqa hurmat ko‘rsatilmaydi, qishloqdan haydaladi. Bu yerda eski yilni kuzatish va yangi yilning kelishini kutib olish maqsad qilinadi. Qadimgi Eronda kun va tun tenglashgan kunda o‘tkaziladigan ushbu o‘yin “Ruqub al-Ko‘sса”, “Kо‘sса barnishin”, “Kо‘sанишин” singari nomlar bilan atalgan. Shuningdek, “Bahor chashn” (Bahor sevinchi) ham deyilgan.

Ozarbayjonda ham turli ko‘sа o‘yinlari mavjud. Ulardan biri tom ma’noda yil so‘ngi o‘yinidir. Bu o‘yinning bosh qahramoni bir momo hisoblanadi. Eronda yilning so‘nggi o‘n kuni “Momo kuni” deb nomlanadi. Bu xuddi Onado‘lida bo‘lganidek, sovuq kunlarning tugaganini bildiradi. Rimda ham fevral oyida o‘tkaziladigan ushbu o‘yin “dies februates” deb nomlangan. Shimoliy Afrikadagi arablar o‘rtasida ham bu turdagи marosimlar mavjud. Bahor mavsumida talabalar bir sulton tanlashadi. Hatto haqiqiy sulton ham bir hafta mobaynida ushbu vaqtinchalik sultonga hurmat ko‘rsatadi. Bu marosimda ham ba’zi hayvonlar shakliga kirish yoki maska taqish holatlari, echki terisini yopinib olish holatlari kuzatiladi.

5. Kundalik hayot sahnalari. Onado‘li xalqi o‘z kundalik hayotini ham sahnalashtirishga katta ahamiyat qaratgan. Bunda asosan turmushdagi salbiy holatlар tanqid ostiga olingan. Er-xotin, qaynona-kelin, ko‘p xotinlilik, uydа qolgan qiz, o‘lim, shaharga yoki hajga borish singari holatlар jonlantirilgan. Bu yerda qadimgi diniy urf-odatlarga asoslangan holatlardan tashqari, keyinchalik jamiyatning rivoji bilan yuzaga kelgan salbiy holatlari ham mavjud.

6. Hunarmandlar parodiysi. Onado‘liga xos o‘yinlardan yana biri hunarmandlar parodiysisidir. Bunda hunarmandning ish qurollari vosita qilib olinib, mubolag‘alar asosida uning faoliyati tanqid ostiga olinadi, qo‘pol hazillar qilinadi. Ayniqsa, tabib, savdogar, qishloq kishisi singarilar ko‘proq hazil va tanqid ostiga olinadi.

7. Ekinlar bilan bog‘liq o‘yinlar. Bunda ekinlar va ekin ekish faoliyatini ko‘rsatish bosh maqsad qilib olinadi. Bular orasida ayniqsa yomg‘ir chaqirish, bahorni kutib olish singari marosimlar, urf-odatlar mavjud. Aslida bularning barchasi tubanda tilga olinadigan “Cho‘pon o‘yinlari” bilan bog‘liq. Bu tur o‘yinlarning aksariyat qismi shubhasiz eski urf-odat qoldiqlari sanaladi. Niyde/Oqsaroy kabi qishloqlarda o‘ynaladigan “Sigir boqish va ekinzorni qutqarish o‘yini”, Niyde/Oqsaroy Jimali Yangiko‘y qishloqlarida o‘ynaladigan “Arab va qiz o‘g‘irlash” o‘yini uchta alohida o‘yining birlashuvidan hosil bo‘lgan.

8. “Cho‘pon o‘yinlari”. Cho‘pon o‘yinlarining aksariyati hayvonlarni sog‘-salomat saqlash, ularni ko‘paytirish bilan bog‘liq an‘analar qoldig‘i sanaladi. Cho‘ponlik bilan bog‘liq asosiy udumlar 5 ta. Ulardan bilan “Qо‘ng‘iroq chalish” hisoblanib, qo‘chqor qo‘shilishidan bir kun avval qo‘ng‘iroq chalinib, uylardan baxshish to‘planadi. “Bo‘ri aylantirish” marosimida qishda og‘ilga tushgan bo‘rilardan birortasi qo‘lga olinsa, cho‘ponlar va qishloq yigitlari bir yerga yig‘ilib, bo‘rining terisini shilishadi, yuzini bo‘yashadi, terisiga somon tiqib, bo‘rini yelkasiga ortib uylardan ehson to‘plashadi. “Davar o‘zi” marosimida bir kishi arablarga o‘xshab kiyinadi, ustiga qo‘y terisini yopadi. Yelkasiga, ko‘kragiga qo‘ng‘iroqlar taqadi. Biri paranji yopinib kelin bo‘ladi. Qolganlar efe va kuyov bo‘lishadi. Har xil raqsga tushib uylardan baxshish yig‘ishadi. “Saya kezishi” ham mana shu turdagи marosimlardan biridir. (Sivas/ Xafikning Yalnjak qishlog‘i). “Dal udumi” deb nomlangan marosimda qo‘y, echki egalari cho‘ponlarga sovg‘alar keltirishadi. Cho‘ponlar og‘ilda to‘planadi va bir-birlariga sovg‘alarini ko‘rsatishadi.

Onado‘lida buning eng keng tarqalgan shakli “Saya kezishi” deb nomlanadi. Bu o‘yin “Qо‘chqor qo‘shish” bilan bog‘liq. Ularni “chorva to‘yi” ham deyish mumkin. Ya’ni bu qo‘chqorning qo‘ylar bilan juftlashishi sanaladi. Bu marosim Ulutog‘da noyabrdan 20 kun ilgari boshlanadi. Issiq mintaqalarda sentabr, oktabr oylarida o‘tkaziladi. Qo‘ylarning qo‘zilashi bilan bog‘liq marosimlar “Saya”,

“Saya bayrami” deb nomlanadi. Ushbu saya qo’shiqlari jo’rligida o’tkaziladigan “Davar yuzi” marosimi Tokatning Artova tumanida qishda qo’ylar qo’zilashidan ellik kun ilgari o’tkaziladi.

“Qo’chqor qo’shish” yuqorida aytib o’tilganidek, noyabr oyida o’tkaziladi. Ba’zi joylarda noyabrning o’ninchı kuni, ba’zi hududlarda yigirmanchı kuni o’tkaziladi, ba’zan 15 kun davom etadi. Issiq mintaqalarda yanayam vaqtliroq boshlanadi. Eski Rum hisobi bo’yicha avgustning o’n beshinchi kuni (hozirgi 28 avgust-12 senyabr) oralig’ida o’tkazilardi. “Qo’chqor qo’shish” marosimida ba’zi joylarda xalay o’ynaladi. Qo’zilar besh oyda, ya’ni marosimdan 150 kun o’tib tug’iladi. Yuzinchi kuni qo’zi onasining qornida tuklanadi, ellik kun o’tib esa tug’iladi. Eski Rum hisobiga ko’ra, “Qo’chqor qo’shish”, “Saya bayrami” yuzinchi kuni dekabr oyining 25-kunidan 10 yanvargacha davom etadi. Saya qo’shig’ida sanalar quyidagicha ko’rsatiladi:

Saya, saya sakkiz oyga
Qo’chqor qo’shar to’qqiz oyga.

Ya’ni “Saya bayrami”dan boshlab sakkiz oy o’tgach va to’qqizinchi oy boshida qo’chqorni qo’yga qo’shib juftlashtiradilar. Juftlashtirishdan bir yuz bir kun o’tib, bir cho’ponga hayvon terilari kiydiriladi. Terilar ustiga ko’plab qo’ng’iroqlar taqiladi va yuzi yaxshilab bo’yaladi. Bu cho’ponga “saychi” nomli bir yo’ldosh ham qo’shiladi. “Sayakutlug’u” qo’ylarning qornida qo’zilar paydo bo’lgan kun sharafiga o’tkaziladigan bayram sanaladi. Cho’pon va saychi vodiyma-vodiy kezib, o’ziga xos xatti-harakatlar bilan bayram qo’shig’ini kuylab, har bir chodirdan sovg’alar to’plashadi, mehmon bo’lishadi, o’ynab-kulishadi.

“Qo’chqor qo’shish” va “Saya” marosimini faqatgina qo’y va qo’chqorni juftlashtirish deb tushunish xato bo’ladi. Chunki Saya qo’shiqlarida boshqa hayvonlarning ham nomi mayjud. Hatto insonlar ham bunga daxldor. Saya sayrida tuyu, tulki singari hayvonlarning shakliga kirib olgan kishilarni ham ko’rish

mumkin. O’rta Onado’lida Saya bayramida “o’g’lonjalandi” nomi ostida tuyani bezatish yoki tuyaga o’xhatish marosimi o’tkazilib bayram sifatida nishonlanadi.

9. Hayvonlarga taqlidlar. Onado’li raqslarida bolalar o’yinlarida bo’lganidek hayvonlarga taqlidlar muhim o’rin tutadi. Yuqorida tilga olingan o’yinlarda ham hayvonlarga o’xhatishlar mayjud edi. Bunda biror voqeа yoki hodisa ifodalananmasdan, faqatgina ma’lum hayvonlarga o’xhatishlar maqsad qilinadi. Bularning aksariyati qadimgi diniy udumlarga borib taqaladi. Eng ko’p taqlid qilinadigan hayvon tuyu sanaladi. Onado’lining turli hududlarida kiyik, tulki, ayiq, laylak, sichqon, quyon, tipratikan, mushuk, xachir, bo’ri, burgut, cho’chqa singari hayvonlar taqlidlar qilinadi.

10. Aytishuv va ertaklardan o’yinlar. “O’lib-tirilish”, “Qiz o’g’irlash” singari o’yinlarning asosi mifologik qarashlarga borib taqalanganidek, boshqa o’yinlarlar ham shubhasiz mifologik asosga ega. Chunki ushbu o’yinlarning barchasi yuqorida tilga olingan “Misgar o’yini” singari Onado’lining turli tomonlariga tarqalgan. Muqaddimada ta’kidlanganidek, so’z va mifologik asos ularni abadiylashtirgan. Eng ko’p uchraydigan mavzular “Kalo’g’lon” dostoni qahramoni Kalo’g’lon bilan bog’liqidir. Boshqa ertaklarmi ham ko’rishimiz mumkin. Tarixda istiqlol mujodalasi bilan bog’liq o’yinlar ham bor edi.

11. Hazillar va so’zsiz o’yinlar. Onado’lining ba’zi o’yinlari ma’lum bir g’oyani ilgari surishdan ko’ra ko’proq tomoshabinlarni qo’rqitish, ularga hazil qilish, ularni tashvishga solishga asoslanadi. Buning bir turi so’zsiz o’yinlardir, ya’ni Onado’lida “samit (somut)” va “lol” deb nomlanuvchi ovozsiz o’yinlar sanaladi. Tomoshabinni hazil yo’li bilan kuldirishga asoslangan ushbu o’yinlar ba’zi joylarda o’zining maxsus nomiga ega. Masalan, Karsda bunday o’yinlar “xanak” deb nomlanadi. Karvon o’yini ana shunday xanaklar sirasiga kiradi. O’yinda yungli teri kiygan, yuzini un yoki qora rangga bo’yab olgan, boshiga ro’mol o’ragan karvonchi turli hayvonlarga taqlid qilib tomoshabinni kuldiradi. Qaysari/Hojilarda uylarni aylanib ko’proq aprel oyida kunlar isishi bilan o’ynaladigan “O’lik o’yini” hamda Karamanning Yashildara (eski nomi Qizillar

qishlog‘i) qishlog‘ida o‘ynaladigan o‘yinlar bunga misoldir. “Arab o‘yini”, Karamanning Yashildara qishlog‘ida o‘ynaladigan “Shih o‘yini”, Anqaradagi “Arab o‘yini” hamda “Arvoh o‘yini” shular jumlasidandir.

Osiris, Dionis marosimlari singari paratlarda kema olib o‘tish holati mavjud. Bunda xuddi ekin bilan shug‘ullanuvchi xalq orasida sovun o‘tkazishga o‘xshab mo‘l-ko‘lllik, baraka olib kelishiga ishoniladi. Qadimgi Usmoniyalar paratlarda kema olib o‘tilardi. “Karnaval” so‘zi aynan mana shundan, “currus navalis” dan paydo bo‘lgani ilgari surilgan. Onado‘lida mavjud bo‘lgan kema o‘yini mana shu marosimlardan qolmaganmikin? Buni aytish mushkul, ammo o‘yinda pul to‘planishi unga marosim xususiyatini hosil qiladi. Ichelda o‘ynaladigan “Kema o‘yini”da o‘n besh-yigirma kishi xoda olib o‘rtaga tikishadi. Barchasi xodaga yopishib boshlarini birlashtirishadi. To‘y o‘tkazayotgan xonadonning o‘g‘li yoki uning o‘zini tutib, ularning ustiga o‘tirg‘izishadi. Mana shu shaklda aylanib pul to‘plashadi. So‘ng uni tushirib, boshqa bir kishini o‘tqizishadi.

12. Qo‘g‘irchoq. Qo‘g‘irchoq – O‘rta Osiyo madaniyati qoldig‘i sanaladi. Ya‘ni turklar “Soya o‘yini” yoki “Qorako‘z”ni 16-asrda o‘zlashtirishgan bo‘lsa, ular qadimdan O‘rta Osiyoda mavjud edi. Qo‘g‘irchoq kasallarni tuzatish uchun o‘ynatilardi. Hozirgi kunda Onado‘lida yomg‘ir yog‘dirish uchun Chaqaloq, Latta odam, Cho‘mich xotin, Cho‘mich kelin, Julli xotin, Cho‘michcha, Bodi Bo‘ston, Kelin ko‘k, Cho‘mich bosh, Suv kelini, Ko‘du kelin singari qo‘g‘irchoq va kuklalardan foydalanilmoqda. Janubiy turkmanlarda bunga monand “Karajor o‘yini” nomli qo‘g‘irchoq o‘yini mavjud.

Onado‘lida qo‘g‘irchoq yerda yoki aravada o‘ynatiladi. Usmoniyalarda xuddi shunday yer va arava qo‘g‘irchog‘i bor edi. Ushbu an‘ana, ayniqsa, bitta qo‘g‘irchoq o‘yinchisining uchta qo‘g‘irchoqni birdan o‘ynatishi Yugoslaviyada ham mavjud.

Burdur va uning atrofida erkaklar va ayollar o‘ynatadigan alohida qo‘g‘irchoq turlari mavjud. Ayollar ko‘proq “xina kechasi”da qo‘g‘irchoq

o‘ynatadilar. Onado‘lida qo‘g‘irchoqning turli nomlari mavjud. Masalan “Korchak” va “Xamachik” singari. Korchak – Bayburt (Kumushxonada)da “chaqaloq, haykal” degan ma’noni bildiradi. Xamachik – Terjan (Arzrum)da “sun‘iy chaqaloq” deganidir.

2. Xalq teatri ananasi.

Hokkaboz-qadimiylar turk tomasjabin o‘yinlari ichida eng qiziqlarli hokkabozlar edi. Chunki bir tomondan qo‘l harakatlari va ko‘zbo‘yamachilik kabi hunarlar namoyishidir, boshqa tomondan usta va uning yordamchisi orasidagi uzun kulgili gaplari bilan Karagöz, Ortaoyunu kabi og‘zaki drammatik o‘yinlarga o‘xshaydi.

Hokkabozning asosiy va maxsus ikkita ma’nosida. Asosiy ma’nosida hokkabozlikning izohlanishi kuch, aql bovar qilmas o‘yinlar ko‘rsatish, ko‘zbo‘yamachilik qilishdir. Hokkabozlar, til va qo‘l tezligi, kerak bo‘lsa birqancha hiyla nayranglar vositasida tomashabinlarni chalg‘itib ajoyib o‘y fikrlar tug‘diradigan, o‘zagi birnecha yillik tarixga borib taqaladigan xalq o‘yinidir. Qadim o‘tmishda turk hokkabazligi o‘zining alohida o‘rniga ega.

Buning dalilini Hokkaboz so‘zini asosiy ma’nosini ikkinchi ma’nolari bilan solishtirgan holda ko‘rishimiz mumkin. Hokkaboz asosiy ma’nosida “nayranglar ko‘rsatish” dir. Nayrang o‘yini, deyishimiz mumkin bo‘lgan ko‘zbo‘yamachilikni qo‘l o‘yinlarining en qadimgisi hisoblanadi. Qisqacha qilib aytganda o‘yin shunday: teskari qilib o‘girilgan uchta idish va kichkina shariklar ishlatalidi. Tilimizda bir qancha bunga oid iboralar bordir: “nayragn ham uchta shariklar ham”... oyinda ikki harakat takrorlanadi. Yoki ichi bo‘sh ko‘rsatilgan idishning ichidan koptokning chiqishi, yoki tomoshabinlarga ichida koptok bordek ko‘rsatilgan idishni bo‘sh qilib ko‘rsatilishi. O‘yin, koptoklarning sonini ortirish yoki hajmini kattalashtirish yoki o‘yinga boshqa narsalar qo‘sish orqali davom ettirilishi mumkin. Faqatgina koptoklar ema, boshqa yumoloq narsalar orqali ham o‘yinlar ko‘rsatilishi mumkin. Masalan : mührebaz, beyzabaz, ýuvarlakbaz kabi yumoloq shakldagi shariklar orqali ham o‘yin ko‘rsatiladi. Turk ko‘zbo‘yamachilarining boshqa o‘yinlari ham bordir. Tik holatda, egilgan shaklidagi tayoq ustida yuqoriga to‘g‘ri tutilgan, tuxumlarni yurg‘izib, sochib

yuborib, parchalarni yo'q qilib, almashtirilgan holda mis sharlarini chapdan o'nga o'yнатиб, bo'm-bo'sh hالتachalarини to'ldирib, stol ustida tурган bo'sh tog'ораг уларни suvdek to'kkандек qilib ko'rsatishдан iborat.

Çengiler-Köçekçeler-Curcunabazlar- qадимги томашабин о'йнлари ichida "Köçek" va "Çengi" lar alohida ahamiyatga egadir. Bular alohida huddi balet drammatik san'ati kabi drammatik hususiyatga ega bo'lган sahna o'йnларидир. O'tган asrlarda sanatning qadr qimmatini o'zida mujassam etgan yillar davomida ancha buzilishlarga uchragan va borgan sari yo'qolib ketgan san'at turi hisoblanadi. Bu kabi san'at turlarining bir necha xil nomlari bordir.

Boshida ayol erkak ayirmasdan butun raqsga tushuvchilarga "chengi"¹ deyilardi. Shuningdek, XVII asrga oid Viayana nashriyotining Menenskiy lug'атida chengining arfa kabi tik holatda chalinadigan chang musiqa asbobini chaluvchisi ma'nosini ; "raqqos, komediya aktyori" ma'nolari ham berilgan. Shu bilan birga XVII asrda prof. T.Haydening lotin tilidagi " De Ludis Orientalibus" nomli kitobining turk spektakllariga bag'ishl;angan bo'lmlarida ham "chengi"ning bir qancha ma'nolari orasida komediya aktyori ham borligi ko'rsatib o'tilgan. Ammo vaqtlar o'tib, bu so'z faqatgina ayol raqqosalarga berilgan nom bo'ldi. Bunga javoban, erkak aktyorlarga "köçek" ² yoki "tavşan" ³ deb ham aytilar edi. "Çengi"ni "köçek" va "tavşan" lar va boshqa aktyorlar kabi qo'llar harakatlantiradi. Har bir guruhda sariq qo'lqop kiygan bir qog'irchoqboz va uning yordamchisi bo'ladi. O'yinchilarning soni o'n ikki kishidan iborat bo'lardi. Bundan tashqari 4 kishidan iborat cholg'u guruhi, xiylakorlar,nayrangbozlar, ham ishtirot etardi. Teatr qo'yiladigan joyda "chengi" larni hammom ustalari kiyinishlariga yordamlashar edi, ularning makiajiga va bezaklariga ham ko'maklashishardi. Xususan, "tavşan" ijrochiları u burchakdan bu burchakga sakrab o'ynashar edi.

Köçek' lar obrazidagi ayol harakatlarini islom mamlakatlaridagi bir necha erkaklar mohirlik bilan ijro etishgan. Köçek' lar qiz kabi kiyinib, sochlarini uzun

yo'yishgan. Kiyimlari quyidagicha edi: zar ipli, popukli ipak matodan bir libos, soch turmag'i, zarhal ipakli kamar; usti ipak, etagiga naqsh tushirilgan ko'yylak, uning ustidan tamoman zarli ishlov berilgan kadife yoki qizil junli matodan dilme, boshlarida to'qilgan fes(qalpoq), uning ustidan zarhal ipli ro'mol o'rashardi. Tavşan'lar esa, köçek'lardek ko'yylak kiymay, çuha(junli mato) dan shalvor kiyar, ustiga kamzul, beliga har xil rangli mato o'rashar, boshini ham köçek'lar kabi ochiq qoldirmas, naqshli kuloh kiyishar edi. Bazilari barmoq uchlarida, tayoqlarining uchida chinni likopchalarni gir-gir aylantirib raqs tushishar edi. Bularning yana bir nomi "kasebaz"dir.

Ritm cholgu asbollarini "çarpare, çegane" deyishadi. Çarpare: 8-10 sm kattalikdagi yumaloq tayoqlar bo'lib, bir biriga urilganda "kastanyet"- (barmoqda chalinadigan qo'ngiroq turi) dek ovoz chiqaradi. Bu bilan raqs tushganlarga va boshqasi raqs tushib buni chalganlarga "çarparezen" deyishadi.

" Çegane" -turli ko'rinishdagi qo'ng'iroqli qisqich, bazilarining bitta tili ustida uch qo'ng'iroqli, bazilarining esa uch til ustida uch qo'ng'iroqli turi mavjud. Bua asbobni chaluvchilarga, yoki bu asbob ovoziga raqsga tushuvchilarga "chiganabaz" deyiladi. "jurjanabaz" lar esa qopolroq, kulgili kiyimli, shovqin soluvchi o'yinchilardir: bazilari boshqa o'yinchilar bilan birga sahnaga chiqib o'xshataolmaganliklari uchun taqlid qilishadi, xalqni kuldiradi. Yuzlariga kir, "yuzluk" deb nomlangan maskalar taqishadi. Bularning "cin askeri" deb nomlangan bir turi bor edi.

TURK XALQ TEATRI – MEDDAH

Meddhah-ananaviy turk tomashabin o'йnларining eng asosiyalaridan biridir. Meddhah – bir ma'noni anglatishiga ko'ra "Qorako'z Orta oyunu" kabi drammatik turlardan ajralsada, bu kabi ma'nolarni ichida dialogli, taqlidli shaxlantirish kabi xususiyatlarni o'zida jamlagan uchun u ham drammatik tur hisoblanadi. Meddhah, uslubi jihatdan Qorako'z va Orta oyuniiga juda yaqin bo'lsada, bular faqat hajviy teatr bo'lishiga qaramasdan, Meddhah juda boy manbalarga tayanishi bilan, hikoya ko'laming turfa xillligi bilan, hajviya bilan birgalikda havoyi majoziy aks etishi tomonidan ulardan ajralib turadi. "Dede Korkut", " Ko'ro'g'lu" kabi ananaviy

¹ Musiqa asbobi jo'rligida o'yinga tushuvchi raqqosa.

² Ayol obrazini ijro etuvchi erkak aktyor.

³ Yog'ochga ishlov beruvchi usta san'atkori.

Turk manbalarida kelgan mavzular, islom ananasidan kelgan diniy mavzular, "Sayyid Battal Gazi", Karbolo voqeasining har xil ko'rinishlari, Hazrat Hamzadan, Hazrati Ali bilan bog'liq bo'lgan mavzular, Eron ananalaridan afsonalar, dostonlar, shohnomalarga tayangan mavzular orqali turli xil majozlarni aks ettiradi. Maddohlar so'nggi paytlarda juda ko'p hajviyaga yo'nalgan. Shu bilan birga "Hançerli hanım", Binbirdirek kabi haqiqatga asoslangan xalq hikoyalarini, ayni hikoyalarni bir hajviya holatiga keltirgan, Qorako'z va Ortaoyunudan o'zgacha tarzda-Maddoh, fikrini davomli, tinglaganda, to'xtovsiz, his ettiradigan, hayron qoldiradigan tarzda ifoda etadi. Bir mardlik dostoni bo'lmish Karbolo voqeasini, diniy tuyg'ular va diniy ehtirom yaratgan hikoyalarni tinglash oqibatida yuzaga kelgan taasurotlar tabiiy bo'lishi mumkin.

Qorako'z va Ortaoyinining tomashabini spektaklni ham aktyorlarni ham aynan qabul qiladi. Shu jihatdan o'yin bilan qorishib ketish, uning havosini his qilish, kishilar bilan yaqinlashishni ko'rishimiz mumkin; aks holda tomashabin va o'yin orasida aniq bir masofa,sovujqonlilik yuzga keladi. Unday bo'lsa Maddoh tanlagan mavzulariga ko'ra tomashabinda jo'shqinlik, qayg'u, xavotir, achinish, tuyg'ularini hosil qiladi, kishi bilan tomashabin orasida, bir hisni tuyish, bir yaqinlik qurishi mumkin. Taxminan 1616-yilda Bursada shoir Hyli Ahmed Chelebiy bir davrada Badi va Qosim hikoyasini aytar ekan tinglovchilar shunchalik hikoyaga shunchalik berilib, bazilari Badining bazilari Qosimning muhlisi bo'lishgan; har ikki tomon ham o'z qahramoni ismini eshitib baqirar emish va bu jo'shqinlik paytida qosimni yonini olgan Hayli Chelebiy qarshi tomondan, Sachakchizade ismli bir boshqa hikoyachini meni mazah qilyapti deb pichoqlab o'ldirgan.

TURK XALQ QO'G'IRCHOQ TEATRI – KUKLA

Turkchada chaqaloq ma'nosida kelgan va bugungi kunda Onado'lida saqlangan korçak, kudurcuk, kaburcuk, koğurcak, kaurcak, lubet kabi nomlar bilan atalib kelinayotgan qog'irchoq o'yinlari eng qadimgi o'yinlardan biri hisoblanadi. "Korkolçak", "Çadir hayal" (ipli kukla) nomi bilan saqlangan qo'g'irchoq o'yini O'rta Osiyodan keltirilgan deb hisoblanadi. O'rta Osiyoda ham bu o'yin aynan shu

nom bilan ataladi. 14 asrdan beri o'ynatib kelingan qo'g'irchoq o'yini 17 asrdan beri Turkiya shaharlarida qog'irchoq nomi bilan tanilgan bu o'yin Onado'lida bebek, ç□mce gelin, karaç□r kabi nomlar bilan tarqalgan. Qog'irchoq o'yinining asosiy mavzusi bu – kundalik hayotdan olingen voqealardir. Bu o'yinning bosh kahramoni İbiş (yani İbrohimning qisqartirilgani) va Qariyadir. İbiş ayyor va hozirjavobdir. Qariya esa hayotni achiq chuchugini ko'rgan kishidir. Bu sanat kukla terminidan tashqari ipli kukla, el kuklesi, araba kuklesi , iskemle kuklesi kabi turlari ham bor.

Oxirgi yillarga qadar an'anaviy turk teatri bo'yicha ishlagan tadqiqotchilar turk qo'g'irchog'idan bexabar ko'rinishadi. Turk soya oyini yoki Karago'z borasida ko'p to'xtashgan bo'lsalar-da, turk qo'g'irchog'i borasida hech narsa yozmaganlar. Buning turli xil sabablari bor. Dastavval bu tadqiqotchilar qo'g'irchoq bo'yicha manbalarni ko'rismagan yoki qo'g'irchoq borasidagi manbalarni hamsoya oyini hisoblashgan. Mazkur yanglishishlarning turlicha sabablari mavjud. Bulardan biri, mavjud manbalarda qo'g'irchoq tomoshalariga qo'g'irchoq nomini berish XVII asrdan boshlangan. Ta'kidlab o'tilganidek, O'rtao'yiniga faqatgina XIX asrga kelib O'rtao'yini nomi berilishiga qaramasdan, tomoshalar ancha oldinlarga borib taqaladi. Qo'g'irchoq ham XVII asrdan qo'g'irchoq deb atalishiga qaramasdan ancha oldinlarga borib taqaladi. Shunday ekan, asoslar bilan ko'rsatganimizday qo'g'irchoq Turkiyaga XVI asrda kirib kelgan soya o'yini yoki Karago'zdan ham qadimiyoqdir.

Tadqiqotchilarning dastlabki xatolari, qo'g'irchoq o'yini borasidagi eski manbalarni soya o'yini deb o'ylashlaridan kelib chiqqan. Hozirga qadar eng eski nuqtai nazar soya o'yinining Xitoydan Mo'g'ullarga o'tganligi va u yerdan esa Turkiylar tomonidan Uzoq sharqdan G'arbg'a o'tganligidir.

O'rta Osiyo va Eronda soya o'yini bo'lgan to'g'risidagi xato fikrni soya o'yini tadqiqotchilarining otasi hisoblanuvchi Pr. Yakobdan boshlab bir qancha tadqiqotchilar ko'rko'rona yangilab davom ettirishgan. Yakobning xatosi Turkcha chaqaloq (bebek) ma'nosiga keluvchi va hozirda Anadoluda saqlanib qolgan korchak, kudurjuk, kuchak, kavur, konchak, kabarchuk, kavurjak, go'g'urjak

so'zlar bilan soya o'yini o'rtasida va ayniqsa, Orta Osiyo Turklarining qo'g'irchoq o'yini hisoblanuvchi Chodir Xayol va Qo'l Qo'rchoq bilan soya o'yini orasida o'zaro bog'liqlik qurmoqchi bo'lidan kelib chiqqan. Mazkur xato ikki qo'g'irchoq turini bilmaslikdan,farqlolmaslikdan va Chodir Xayoldagi xayol so'zini soya o'yini deb o'ylashdan o'rtaga chiqqan. Aslida xayol so'zi ko'pgina manbalarda soya o'yinidan ko'ra ko'proq qo'g'irchoq uchun qo'llanilgan. Codir Xayol ipli qo'g'irchoq, Qo'l Qo'rchoq esa qo'l qo'g'irchoqdirdi.

O'rta Osiyo ta'sirida qo'g'irchoqning Turkiyaga soya o'yinidan ancha oldin kirgan bo'lishi mumkinligiga va Saljuqiylar davrida qo'g'irchoqning mavjud bo'lidanligiga ishonishimiz uchun asoslar topildi. XIII asrda Sulton Valad devonidagi to'rt misra buni ko'rsatmoqda. Bu yerda so'fiy an'anasi mos tarzda yer bilan zamin (charx va zamin) chodirga (hayma), insonlar esa o'yinchoqlarga, qo'g'irchoqlarga (lu'betan) o'xshatiladi.

Bu xatoning sababi qadimiy matnlarda "xayol" so'zining qo'g'irchoq uchun qo'llanilishi, XVI asrda Turkiyaga kirib kelgan soya o'yinini qo'g'irchoqdan ajratish uchun unga xayoli-zill deyilganligi bo'lidi.

Hozir xoh Eron, xoh Turk manbalarida tadqiqotchilarini hayron qoldirgan va qo'g'irchoq o'yinini soya o'yini deb o'ylashlariga yo'l ochgan sabablarni tahlil qilamiz:

Xayol so'zini tadqiqotchilar soya o'yini deb hisoblaganlar. XVI asrdan oldingi matnlar ko'proq shoirona talmehlar bo'lidan, bular illo Turkiyada bu o'yinlarning bo'lidanligidan emas, balki Arab va Ajam adabiyotiga taqlid ham bo'lishi mumkin. Xayol so'zi XVI asrda soya o'yinining Turkiyaga kirib kelishi bilan ishlatala boshlagan xayoli-zill bilan yonma-yon qo'llangan. Demaki, xayol o'yin tushunchasi sifatida qo'g'irchoq va soya o'yini ma'nosidan tashqari ham qo'llangan. XV asrda yashagan Ispaniya missioneri Pedro de Alkala, Granada (1505) nashrli Vocabulista Arabigo lug'atida *lu'b-i hayal* yoki *hayal-i lu'b* tarjamasi sifatida "boshqalarga taqlid qilish o'yini", *momo contrahezedor* deb ko'rsatilgan.

Turkiyada asrlar davomida turli tuman qo'g'irchoqlar bo'lidanligi va o'ynaliganligini o'rganish bilan bir qatorda qo'g'irchoq hech qachon Qorako'zday ahamiyatga ega bo'lidan. Qorako'z qahramonlari kabi insonlar qalbidan unchalik chuqur joy egallamagan. Shu bilan birga tadqiqotchilarining go'yo Turkiyada qo'g'irchoq bo'lidan munosabatda bo'lishlariga qaramay, yana-da kamida Qorako'z kabi o'z taxiriga ega qo'g'irchoq a'anasi borligini qadimgi mahalliy va chet manbalar, qadimiy minyaturalar ko'rsatmoqda. Qo'g'irchoq va soya o'yini bir-biriga chalkashtirib yuborilishi, ikkalasi uchun har xil atamalar qo'llanilganiga qaramasdan, tadqiqotchilar xoh mahalliy, xoh chet manbalardagi bu atamalarni har doim soya o'yini yoki Qorako'zga oid deb hisoblashgan. Qo'g'irchoq ko'proq XVII asrda keng tarzda qo'llangan bo'lsa-da, oldinroq xayolboz, shabboz, suratboz, lu'betboz, piyoda chodirlari, oyoq qo'g'irchog'i kabi so'z va iboralardan soya o'yini bilan birga, har xil qo'g'irchoq turlari bo'lidanligi anglashiladi. Turkiyada soya o'yinlari borasidagi dastlabki ma'lumotlar ham aynan XVI asrda bilina boshlandi. 1582-yil bayramida Qorako'z bo'limida guvoh bo'lishimiz mumkin bo'lidan, soya o'yini yangi o'yinday uzoq ta'riflanishiga qaramay, o'sha yilgi solnomada tez-tez uchraydigan xayolboz termini qo'g'irchoq ekanligi tushunilmoqda. Aslida Surnoma-yi Humoyunda faqat bir joyda uzoq ta'riflangan bo'lsa-da, qo'g'irchoq o'rniga qo'llanilgan xayolboz nomida tomosha bo'lidanligi uchun uning ustida to'xtalmagan, o'sha bayramni ifodalagan nemischa manbada ham soya o'yini bir bor aytib o'tilgan bo'lsa-da, qo'g'irchoq tomoshalari bu manbaning bir qancha joyida har xil vositzlar yordamida ifodalangan. Garchi qo'g'irchoq Turkiyada XVI asrda va undan oldingi asrlarda mavjud bo'lidan tomosha bo'lsa-da, soya o'yini anchayin yangi hisoblanadi. Quyida 1582-yil bayramidagi tomoshalardan bahs etuvchi olmon manbasidan qo'g'irchoq namoyishlari borasidagi fikrlar, ma'lumotlarni keltirib o'tamiz. Bular kichik bir kulba ichida jonliday o'ynatilgan, boshqa joyda ifodalishiga ko'ra, kichik bir kulba qurilgan, uning ichida qo'g'irchoq gapirtirilib harakatlantirilgan, yoqimli va quvnoq tarzda o'ynatilgan, to'y manzarasi jonlantirilgan, bu to'uda turk o'g'lonlari qo'llarida qurol bilan o'ynaganlar, ularni o'ynatuvchining yordamchisi kulbaning

oldida go'yo ular jonli odamday ularni harakatlantirish uchun o'yinlar ko'rsatgan, yana boshqa bir joyda qo'g'irchoqlar o'ynatilayotgan paytda bir o'yinching ularga tashqaridan ovoz berilishi aytiladi.

Shuningdek xuddi o'sha bayram bilan bog'liq bo'lган o'yinchilar va o'yinchilar jamoasining nomlari haqida xabar beruvchi qo'lyozmada qo'g'irchoq va soya o'yinlari bilan aloqador bir qancha atamalar topdik. Ular bir-biriga yaqin bo'lганligi uchun ular o'rtasida mantiqiy mavzu birligi bor degan xulosaga kelish mimkin. Ulardan biri suratbozondir. Uning qo'g'irchoq o'ynatuvchi ekanligini osongina taxmin qilish mumkin. Yana biri *xayol-i ziljiyon* bo'lib, uning yo soya o'yini yoki faqat saroylarda qo'g'irchoq o'ynatuvchi tomosha turi. Oxirgi *Jamoati piyoda chodirlari* iborasi o'nga toldiradi. Qo'g'irchoq va soya o'yinlari bilan bir qatorda keltirilganligi uchun uni ham qo'g'irchoq o'yinlaridan biri deb hisoblashimiz mumkin. Mahalliy manba sohiblaridan Avliyo Chalabiy esa davrining tomosha o'yinlari uchun to'rtta alohida nom beradi: Pahlavoni qo'g'irchoqboz, pahlavoni boshqo'g'irchoqboz... Qo'g'irchoqboz va boshqo'g'irchoqboz orasida qanday farq bor? Boshqo'g'irchoqboz atamasi bosh, usta bo'lган qo'g'irchoq o'ynatuvchi ma'nosidami, yoki boshqa bir qo'g'irchoq o'yinining nomimi? Buni bilolmaymiz. Yana Avliyo Chalabiy Erzirumdag'i o'yin ko'rsatuvchilar nomini sanar ekan shabboz, xayolboz Qandillio'g'li borasida to'xtaladi. Ham shabboz, ham xayolboz deganiga ko'ra ulardan biri qo'g'irchoq, biri soya o'yini bo'lishi mumkin.

Bundan oldingi davrlarda suratboz, qog'ozboz, boshqo'g'irchoqboz, oyoq qo'g'irchog'i, yer qo'g'irchoq, shabboz, piyoda chodirlari kabi atamalar bilan birga arava qo'girchog'i, dev qo'g'irchog'i kabi har xil turlari borligini ko'rgan edik. Yaqin o'tgan davrlarda esa 3 xil qo'g'irchoq mavjudligini bilib olamiz: *Kursi qo'g'irchog'i, qo'l qo'g'irchog'i, ipli qo'g'irchoq*.

Kursi qo'g'irchog'i Yevropada **Jipping Puppets** yoki Marionettes ala planchette deb bilinuvchi qo'g'irchoq turidir. Ko'kslaridan yotiq tarzda ip o'tkazilib, gayda va boshqa musiqa asboblari ohanglari jo'rligida pastdan iplari

tortilib, sakratib o'ynatiladi. Bunday qo'g'irchoq bilan asosan sayyod qo'g'irchoqbozlar tomosha ko'rsatishgan.

Qo'l qo'g'irchog'i. Bu ancha keng tarqalgan. Bu Italiyadan kelib chiqqan degan taxminlar bor. Ularning boshlari va qo'llari karton yoki taxtadan, gavdalari bo'zdan\lattadan qilingan. Qo'g'irchoqboz qo'lini qo'g'irchoq kiyimlari ichigi tiqib, ko'rsatgich barmog'i bilan boshni, bosh va o'rta barmoqlari bilan esa qo'llarni o'ynatgan.

Ipli qo'g'irchoq. Bu qo'g'irchoq tarixan yangi hisoblanadi. Yarim asr muqaddam Istanbulga kelgan ingliz qo'g'irchoqbozlaridan Tomas Holden Beyo'g'lida Tokatliyan Oteli o'rnida, keyinchalik yonib ketgan Fransuz Teatrida tomosha ko'rsatgan. Holdenden keyin musiqa-yi humoyundan Halimbey ismli qo'g'irchoqboz ham Podshoh huzurida ipli qo'g'irchoqni o'ynatishning ustidan chiqqan. Holdenning tomoshalaridan keyin skelet o'yinini ham namoyish qilishgan. Lekin qo'l qo'g'irchog'i ipli qo'g'irchoqdan ancha oson va arzon bo'lганligi uchun keng tarqalgan. Qo'l qo'g'irchog'i bilan 1882-1891\92-yillarda orasida Oseb Sivajiyanning ba'zi o'yinlarini ko'rsatgan. Holdenning ta'sirini ko'rish uchun o'sha yillarda spektakl qo'yan turk qo'g'irchoqbozlarining programmalariga nazar tashlash kifoya. 1896-yilda Tepeboshi Teatrida 10-aprelda boshlangan spektakllarda va Aminbeyning, Holdenning shogirdi va Holdenday yaxshi qo'g'irchoqboz bo'lганligini bilishimiz mumkin. Holdenden ta'sirlangan yana bir turk qo'g'irchoqbozi Jamil Mehmetbey edi. 1897-yilda Jamil Mehmetbey 16-aprelda Concordia Teatrida o'z spektakllarini qo'yan.

Turk qo'g'irchog'ida insonlar xususiyatlari Qorako'z va O'rtao'yinlaridagi kabi aniq tasvirlar bilan ifodalamaydi. Qo'g'irchoq teatrining ovozli tomosha sifatida ancha kech rivojlanganidan bu yerda xoh insonlar, xoh o'yinlar ko'proq Tuluat teatriga katta yaqinlik ko'rsatmoqda. Qo'g'irchoq matnlari tahlil qilinganida xuddi Qorako'zdagi Qorako'z va Hajivat, O'rtao'yinidagi Kabuklu va Pishekar kabi unda ham ikki bosh qahramonni ko'ramiz. Bular Ibish va Qariyadir. Ibish Tuluat teatrida bo'lганiday doim xizmatkor bo'ladi, ismi xo'jayiniga bog'liqligi

tufayli Sodiqdir. Tuluat taerida Ibish xarakter o'laroq "grand comique"dir va yana Tuluat teatrida ismi ko'proq "Firildak" bo'ladi. Bundan tashqari Durmush, Tombul, Fistik, Kivlak, Kishkish, Gaytan, Guguk, Gelejek, Ko'stebek, Altin bulbul, Toplu, Jumbush, Mutlu kabi nomlarni olishgan. Ibish Qariyaning xizmatkoridir. Qariya ham boy, ham katta yer sohibi bo'lgan kishidir. Tuluatda ota "pere noble" degan nom oladi, agar sahnada o'lsa nomi "qariya"dir. Bundan tashqari parchaji yoki chol ham deyiladi. Ibish ayyor, hozirjavob, ko'rimsizgina fesi bor, qilpanglab u yoqdan bu yoqqa sakraydi, qo'pol tilli, so'zleri tushunarsiz, bemani gaplar va nimkosa iboralar qo'llaydi. Bu ikkisidan tashqari boshqa personajlar ham bor. Ulardan biri yosh oshiqq yigit- Tuluat teatrida unga armancha "sirar" yoki Janne premier deyishadi. Uning sevgilisi bo'lgan bir qiz bor. Xoin, nayrangboz, asosan qariyalarning o'ynashi bo'ladigan,o'ylagan xiyalalarni amalga oshira olmasa, o'ch olishga urinadigan yomon odamlarga "tiran" deyiladi. Spektaklchilikda dassas bir odam, xoin bir shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Xotinlarga jazman deyilgan. Bundan tashqari "jadalo'z" deb nomlanuvchi xotin yoxud qizning onasi, ko'pincha tomosha so'ngida turmush quradigan Fotima ismli xizmatchi qiz, arab, shayton, xushomadgo'y, qishloq yigit, yahudiy, laz balama kabi personajlar ham qatnashadi. Tomoshadagi barcha nomlar uydurmadir: "Jaylon, Turna, Shatrab, Zerda, Baber, Darha, Chalha, Solta, Gul, Fidan" kabi. Tayoq, kaltaklash sahnalari ko'p. Lekin dastlab, Qorako'z va O'rtao'yinida bo'lgan "muqaddima" juda oz edi, "fasil"da esa personajlarning soni juda kam. Qo'g'irchoq o'yinlari yo Qorako'z, O'rtao'yinidan, yoki xalq afsonalai, ishq hikoyalari asosida sahnalashtirilgan.

TURK XALQ SOYA TEATRI – KARAGÖZ (QORAKO'Z) Karagöz eski turk teatr turi yani sahna o'yinidir. Turkcha Karagöz so'zi (atamasi)ning ma'nosi "Qora ko'z" yoki "Qora ko'zli inson" bo'lib, turklarning an'anaviy "soya teatri" ning nomidir. Qorako'z teridan (asosan tuya yoki buqa terisidan) yoki muqovadan tayyorlanib, boyalib *tasvir* nomi berilgan inson qiyofalarini bir oq parda ustida, narsa buyum shakllarining tayoqchalar yordami bilan orqadan yorug'lik berilib, aks ettirish yo'li bilan o'yнатiladigan o'yinga aytildi. *Hayal o'yini* deb ham

ataladi. Shu bilan birga Karagöz ismi o'yin, ya'ni sahna bosh kahramonining nomidir. Soya teatri o'z nomini bosh kahramon nomidan olgan.

Qo'g'irchoqlarni boshqaradigan aktor *Hayali* deb ataladi. *Hayali* ayni paytda bu o'yinda xalq qarashini va tushunchalarini ko'rsatib beradi. *Hayali* (Xayoliy) yordamchilari *çirak*, *yardak*, *dayrezen*, *sandikkar* deb ataladi. *Hayali* (Xayoliy)ga shogirdi yordam bera olsa-da, Xayoliyning aynan o'zi ovozini xilma-xil qilib, yosh qiz-juvonlardan boshlab munkillagan kampirlargacha, barcha kahramonlar uchun ovoz beruvchi yagona aktyor hisoblanadi. U yosh bolakaydan keksa cholgacha, savodxon kishidan savodsiz dehqongacha, yahudiy, armanidan alban, arab, turk, yunongacha, aroqxo'rning baqirishi-yu, mushukning miyovlashidan itning akkilashigacha hamma narsani taqlid qiladi. Qo'g'irchoqli aktorning o'zi diagonal (yarim yotiqligida) shaklda o'rnatilgan uzun cho'p bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarning hatti-harakati, nutqini boshqarib turadi. Bu insondan iqtidor, ko'nikma va katta tajriba talab qiluvchi favqulodda murakkab kasbdir. Auditoriyadagi tomoshabinning ko'zi o'ngida qo'g'irchoqlarning soyasi orqadan sham yoki kerosinli chiroq (moy chiroq), bugungi kunda esa elektr chirog'i bilan yoritilib turadigan ekranni to'ldirib turadi.

QORAKO'Z O'YININING TUZILISHI, BO'LIMLARI

An'anaviy soya o'yini ijrosi to'rt qismidan iboratdir:

1. Mukkaddime – Muqaddima (prolog)
2. Muhavere – *Suhbat* (dialog)
3. Oyun (Fasıl) – *Tasvir* (grafika)
4. Bitiş – *So'ng so'z* (epilog)

1. Giriş (Öndeyiş-Mukkaddime-Prolog)

Muqaddima (prolog) qisqa sh'er, ekran (parda) g'azali, Qorako'z va Xojivot o'rtasidagi kurashni nihoyalovchi qisqa dialogdan iborat.

O'yindan oldin sahna o'rtasiga qo'yilgan parda *nareke* (qamishdan qilingan bir necha hushtak) shovqini va tef velvelesi (maxsus fon uchun musiqa asbobi) jo'rligida ko'tariladi. Qo'yilgan sahnaning maqsadi tomoshabinni diqqatini o'yinga jaib etish va o'zin boshlanganini bildirishdir. O'rtadagi parda ko'tarilgandan so'ng

sahnaga qo'shiq aytib (semai) Xojivot kirib keladi. Xojivot tomoshabinlarga ko'ra chap tarafdan kirib keladi. Qo'shig'ini tugatgandan so'ng parda g'azalini o'qiydi. Parda g'azalini bitirgandan so'ng Xojivot baland ovozda soya teatri asoschisi bo'lgan shayx Kushtarini (Şeyh Muhammed Küşteri) madh etadi va tomoshabinlar bilan salomlashadi.

Shundan so'ng do'sti Qorako'zni qidirishga boshlaydi. Qorako'zni e'tiborini jalg etish va sahnaga keltirish uchun baqirib, maqom bilan yana qo'shiq aytga boshlaydi. Shu paytda Qorako'z oynadan qaraydi va Xojivotga baqirmsaligini aytadi. Xojivot Qorako'zning gapiga qulq solmay qo'shig'ini davom ettiradi. Bundan jahli chiqqan Qorako'z pastga sakraydi va Xojivot bilan janjallahishga boshlaydi. Xojivot qochadi. Qorako'z orqasi bilan yerda yotgan paytida Xojivotga yuzlanadi. Bu bo'lim Xojivotning sahnaga kirib kelishi va Qorako'zni ham sahnaga taklif qilinishi va janjallahishi bo'limidir.

2. Muhavere. Suhbat (dialog)

Dialog – asardagi ikki asosiy personaj – Qorako'z va Hojivot orasida bo'lib o'tgan shakllantirilgan uzun suhbatdir. Bunday suhbatda bir necha kulgili hajviy mavzu takrorlanadi. Undan tashqari, bu o'yinning bir qismi bo'lib, siyosiy, ijtimoiy va boshqa yangi-yangi mavzular bilan yanada kengaytirilishi mumkin. Bundan maqsad bir paytning o'zida ham xajvni, ham ijtimoiy satirani, ham tanqidni ifoda etishdir. Bu bo'lim Qorako'z va Hojivotning biron bir voqeaya yoki orzuning xuddi bir voqeaya kabi aks ettirilishi haqidagi bo'limdir.

3. Tasvir (графика). Oyun (Fasıl)

Asosiy o'yin Muhavere yani Suhbat bo'limi bitgandan keyin boshlanadi. Bu bo'limda asosiy mavzu yoritiladi. Mavzuga ko'ra bu o'yinda boshqa obrazlar – Zenne, Çelebi, Tuzsuz Deli Bekir, Beberuhi Tiryaki, Frenk, Yahudi, Acem, Matiz kabilalar ham birin-ketin kirib kelishadi. Albatta bosh rollarda har doim Qorako'z bilan Hacivat bo'ladi. Qorako'z soya teatrining tasviri ellikdan ortiq to'plamni o'z ichiga olgan. Undan tashqari an'anaviy o'yinlarning soni o'ttizta. Ulardan har biri Islomdagi eng muborak oy hisoblangan Ramazon oyi haqidagi kechada qo'yilishi kerak bo'lgan. Har bir grafika alohida nomga, real sahnaga ega bo'lgan. Qorako'z

ham, Hojivot ham, boshqa obrazlar ham o'ziga xos. Nazariy jihatdan olib qaralganda, grafika klassik va an'anaviy shaklga erishgan. Buni har qaysi qo'g'irchoq san'atkori bilishi va amal qilishi kerak bo'lgan. Haqiqatdan ham bunday an'anaviy o'ziga xoslik har bir san'atkori – ijrochining xususiy yaratuvchiligiga asoslangan. Qo'g'irchoq san'atkori yangi dialog shakllarini mustaqil ravishda tuza olgan, ekranga yangi mavzular olib chiqqa olgan. Undan tashqari, ijtimoiy satirani sahnaga olib chiqib, yangi-yangi grafik tasvirlar yaratada olgan. Qorako'z ustasi o'yin davom etishiga qarab bi tiplarni o'zgartirib, kamaytirishi mumkin. Ba'zi o'yinlarda Qorako'z va Hacivat ham o'yinni borishiga qarab har hil harakatlarda sahnaga kelib rollarini ijro etadilar. Misol uchun "Qorako'zning kelin bo'lishi" o'yinida Qorako'z kelin obrazni bilan o'yinda qo'shiladi yoki ba'zi o'yinlarda Qorako'z jinlar tomonidan o'g'irlanib eshshak holida qaytadi. "Qorako'zning akaligi" o'yinida Hacivat kahva bo'ladi, "Tebratgich" o'yinida esa Qorako'z tomonidan tanishmasligi uchun ayol qiyofasiga kiradi.

4. Bitiş. So'ng so'z (epilog)

Bu bo'lim juda qisqa bo'lib, soya sahna o'yini ijrochisi ikki asosiy kahramon o'rtasida bo'lib o'tadigan qisqa dialog bilan nihoyasiga yetadi. Dialog nihoyasiga yetganda Hojivot Qorako'zga: "Yiktn perdeyi eyledin viran/ Varayim sahibine haber vereyim heman" deb o'yin bitganidan xabardor qiladi. Hojivot ekranni boshqaradi, Qorako'z esa auditoriyaga ta'zim qiladi. Va bu safar, ko'zga ko'rinaso soya ijrochisini tomoshabinga tanishtiradi. U o'zining yo'l qo'ygan xatolari va aytgan so'zlari uchun tomoshabinlardan uzr so'raydi va keyingi safar sahnada bunga yo'l qo'ymasligi, tomoshaning yanada chiroylar bo'lishiga va'da berib, navbatdagi sahna nima deb atalishini oldindan e'lon qiladi.

QORAKO'Z O'YININING TEXNIKASI

Qorako'z o'ynatiladigan oq pardani turklar oyna deb atashadi. Pardalar avval 2 ichkari tarafda pardani tegida o'rnatilgan "peshtaxtasi" bor. O'yinda bundan boshqa qo'ng'iroq, qamish, hushtak, pardani yoritib turadigan chiroq yoki

lampochka bo`ladi. Bularning hammasi peshtaxta ustida bo`ladi. O'yinda qo'llanadigan tasvirlar 32-40 sm kattaligida bo`ladi.

QORAKO'Z VA HACIVAT OBRAZLARI

Qorako'z va Hojivot soya sahnasining qarama-qarshi turuvchi qahramonlaridir.

Qorako'z – katta qora ko`zli, taqir boshli, mustahkam vujud va katta, baquvvat qo'lli inson-qo'g'irchoq sifatida gavdalanadi. Boshida har doim “İşkirlak” degan shapkani kiyib yuradi. U har doim harakatda. Qorako'z tezkor, jasur, serg`ayrat, o'z his-tuyg`ularini so'zi va amali bilan ifodalab, namoyish qilib, ko'rsatib turadi. Har sahnada mushti bilan qarshisida turgan kishiga, jumladan, Xojivotga ham po'pisa, dag`dag`a qilib turadi. Shu bilan bir vaqtida ham soda, ahmoq, ham aqli shaxs sifatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Sahnada savodsiz, bekorchi sifatida ham namoyon bo'lувчи Qorako'z har qanday ishni qilishga qodir. Uning tili qo'pol, so'kinib gapiradi. Qorako'z o'zini to'liq milliy hulq-atvorli kishi sifatida aks ettiradi. Qorako'z sof, sodda, hozirjavob, ziyrak, yaxshiliksevar, qing`ir qiyishiq fikrlardan, bilimdonlikdan, aql o`rgatishdan hech hushlanmaydigan maktab ko`rmagan obrazlardan biridir. Qing`ir-qiyishiq fikrlardan, bilimdonlikdan, aql o`rgatishdan hech hushlanmaydi.

Hojivot Qorako'z o'yinidagi ikkinchi asosiy obrazlardan biridir. Hojivot – chiroyli qilib taroshlangan soqoli (soqoli har doim yuqoriga qayrilib turadi), harakatsiz turuvchi ikki qo'li bilan tartib o'rnatuvchi salobatli kishi sifatida namoyon bo'ladi. Hojivot madrasa ta`limi bilan ulg`aygan obrazlardan biri. U ayyor, o'z manfaatini o`ylaydigan, mahmadona obrazlardan biridir. Usmoniycha adabiy tilde suhbatlashadi. Hojivot somon tagidan suv yurgazishga tayyor, o'z manfaatini o`ylaydigan ayyor obrazlardan biridir. Hojivot o'zini aqli ko`rsatadigan, o'zini yoqtiradigan, mahmadonalardan biridir, quyuq usmoniycha suhbatlashadi. Doimo usmoniychani tushunmaydigan Qorako'zdan bo`yniga tayoq yeydi. Qorako'z Hacivatni tartibli, lug`atli suhbatlar bilan masharalab, uni kulgili vaziyatlarda qoldiradi.

QORAKO'Z O'YINIDAGI UCHRAYDIGAN BOSHQA OBRAZLAR

Zenneler – teatrdagi ishtirok etadigan barcha ayol obrazlar Zenne deb ataladi.

(Zenneler: Karagöz oyunlarında zenneler oyunun konusuna göre değişirler. Cazular oyununda cazu ve kızı olarak, Salıncaklı da sallanmak isteyen kadınlar olarak, Karagöz'ün Bekçiliğinde erkeklerle gönül eğlendiren kadınlar olarak, Ferhat ile Şirin oyununda Şirin ve annesi olarak görünürler. Genelde az konuşurlar. Bazen de Karagöz'ün Karısı gibi perdede görünmezler, sesleri duyulur)

Çelebi – o'qimishli, kibor obrazlardan biridir. İstanbul shevasida gapplashadi. Otasidan qolgan meros bilan kunini kechiradi. Yaxshi kiyinishni, chiroyli gapirishni, she'r o'qishni yoqtiradi. **Çelebi:** Kibar aile çocuğu. İstanbul ağızı ile konuşur. Babadan kalma mirasla geçimini sağlar. İyi giyinmesini, güzel konuşmasını, şiir okumasını sever.

Tiryaki – bekorchi obrazlardan biridir. Chilim chekisni, kahva ichishni yoqtiradigan obraz. Ko`p chilim chekkani uchun doim uyqusirab yuradi. Ma'lum bir kasbi yo`q. (**Tiryaki:** Uyuşturucu düşkünlüğü vardır. Bu nedenle sık sık uykular. Tütün, nargile, kahve, gibi keyif verici şeylere düşkündür, belli bir uğraşı yoktur, boş gezer)

Beberuhi – (**Beberuhi:** “Altı kulaç” yada “pisbop” olarak anılır, çabuk çabuk konuşur, işi gürültüye, eğlendirenlere bol para verir. Genellikle halı tüccarı, tefeci yada antikacıdır)

Tuzsuz Deli Bekir – (**Tuzsuz:** Adı Tuzsuz Deli Bekir'dir. Kabadayı dır, her an herkesle dövüşmeye hazırlıdır. En büyük özelliği kaba kuvvettir, sürekli gözdağı verir)

Arap – (**Arap:** “Ak Arap” veya “Kara Arap” olarak iki türlüdür. Kına, kahve, fistık satıcılığı veya deveçilik yapar, halayık veya uşak olur)

Yahudi – (Yahudi- inatçı ve pazarlıkçıdır. Eskicilik, sarraflık, tefecilik yapar. Korkaktır, yaygaracıdır, çok konuşur)

Kürt – (**Kürt:** İşi çoğu kez hamallık yada bekçiliktir. Bozuk Türkçe'yle konuşur.)

Ermeni – (Ermeni: Müzik şiir gibi güzel sanatlardan hoşlanır, kuyumculuk veya lağımcılık yapar.)

Frenk-Rum – (Frenk - Rum: Çoğu kez doktor, meyhaneci, terzi yada tacirdir. Konuşmasına Rumca sözler katar.)

Acem: İran'dan yada Azerbaycan'dan gelir, varlıklıdır. Eğlenceyi sever, kendini sinirlenir bu yüzden de sık sık tabancasına davranışır.

Kayserili: Adı Mayisoğlu'dur, çoğu kez kolunda yumurta sepeti bulunur, pastırmacı yada bakkaldır, Kayserili şivesiyle konuşur.

Kastamonulu: İri yapılidir, adı "Himmet Dayı" veya "Himmet Ağa"dır. Kastamonu şivesiyle konuşur, dili ve tavırları kabadır. Çok zaman elinde baltası vardır, odun kırar.

Karadenizli - Laz: Elinde kemençesi olur. Çabuk çabuk ve çok konuşur. Çabuk öfkelenip çabuk yatar. Hareketlidir. Karşısındakine konuşma fırsatı vermez.

Arnavut: Cahildir ama ataktır, kabadayılık taslar fakat sıkıya gelince kaçar. Bahçıvanlık, ciğercilik, koruculuk, bozacılık, celepçilik yapar. Çabuk sinirlenir bu yüzden de sık sık tabancasına davranışır.

Rumelili (Muhacir): Uğraşı pehlivanlık ve arabacılıktır. Pehlivanlığıyla övünür ama yenilince müzikçilik eder. Adı çoğu kez "Hüsmen Ağa"dır. Trakya şivesiyle konuşur.

Çengi – (Çengi: Karagöz oyunun sonunda çıkış oynar. Adı genellikle "çengi kız" veya "Afet"tir.)

QORAKO'Z OYININING KELIB CHIQISH TARIXI

Soya o'yining markazı janubiy-sharqiy Osiyo o'lkalari deb qabul qilingan. Turkiyaga bu o'yinning kirib kelishi haqida esa har-xil ma'lumotlar bor. Bulardan biri Orta Osiyoda "qo'l harakat o'yini", "chodir hayol" nomi ostida tanilgan o'ylarning soya oyini bo'lishi va u yerdan Onado'liga ko'chirib keltirilganligini ko'rshimiz mumkin.

Boshqa ma'lumotlarga ko'ra 1517-yilda Misrda bo'lgan Yovuz Sulton Salimning Turkiyaga keltirgan soya o'yini aktorlarini yo'li bilan kirganidir.

18 asrdan e'tiboran andoza bo'lgan xalqning eng sevilgan ko'ngil ochar turlaridan biri bo'lgan Qorako'z yolg'iz aktorning qobiliyatı bilan bog'liq o'ynatiladi.

Shu sababli Qorako'z o'ynatadigan kishining dunyoqarashi boy bo'lishi kerak. Azaldan Qorako'z ustalari televizor, radio, gazeta bo'lmasan paytlarda Qorako'z o'ylari vositasida siyosatga ham o'z munosabatlarını bildirishar hattoki qandaydir bir ovozga taqlid qilib chiqishlar qilganlar. Qorako'z vositasida siyosiy voqealarning tasvirlanishi podshoh Abdulhamid II davridagi taqiqlanib qo'yilgan va Qorako'z oyinida siyosat mavzusiga joy ajratganlarga juda og'ir jazolar berilgan.. Bu qarordan so'ng Qorako'z o'ylari doim yodlanib olinib o'ynatilgan. Qorak'oz oyini boshqa o'ylardan faqatgina kundalik voqealarning sahnaga chiqarilishi bilan izohlanadi.

TURK TEATRI RIVOJLANISHNI

Turk teatri rivojlanishni ilk 3 guruhga bo'lib o'rganib chiqamiz:

Usmon imperiyasi va istibdod davri teatri (1839 - 1908);

Usmon imperiyasi davrida aktyorlik va teatr san'ati;

Usmon imperiyasi davrida teatr jamoaları;

I. Usmonli imperiyasi va istibdod davri teatri

Ilk teatr tomoshalari turkiyaning Istanbul kabi aholi zinch shahardan emas balki Beyo'g'lu deb nomlangan kichik shaharidan boshlangan edi. Bunga sabab o'sha davrga hos bo'lgan notinchlik ya'ni kech bo'lganda tashqariga chiqishning xavfliliği hamda ko'pgina sahnalashtirilgan asarlar xorij tillarida bo'lganligini aytishimiz mumkin.

Beyo'g'lu shahri ham bu davrlarda taxlikali hisoblanadi. Qimorxonalardan chiqqan kimsalar o'sha soatlarda teatrda chiqqan tomoshabinlarga tashlanib pullari va qimmatli taqinchoqlarini o'g'illashlari mumkin edi. Shu sababli politsiya bilan turli xil mojarolar bo'lib turishi tabiiy xol edi.

Teatr binolarida turli sabablarga ko'ra mojarolar, tortishmalar bo'lib turar edi. Ba'zan ko'rsatilayotgan diniy sahnalar sabab janjal chiqsa, ba'zida orqadagi tomoshabinlar oldida o'tirgan tomoshabinlar bilan halaqit bergenliklari uchun tortishib qolishar edi. Shunga o'xshash turli mojarolarni oldini olish uchun

hukumat teatrni vaqtinchalik yopar yoki bo'lmasa vaqt vaqt bilan tekshiruvlar o'tkazib turar edi.

Tomoshabinlarni tartibga solish uchun hukumat doiralari alohida jonbozlik ko'rsatishardi qonunlarga alohida moddalar kiritib ularda tomoshabinlar teatrda o'zlarini qanday tutishlari va tomoshalarga qanday holatlarda qatnashishlarini aniq belgilab berilar edi.

Ilk boshda teatrarda tomoshabinlarni tartibga solish uchun ichki e'lonlardan foydalanilar edi. Ya'ni o'tirish joylarining tartib raqamlari, parda orqasida ovqat uchun mahsus joylar, salonda sigoreta chakmaslik, shovqin solmaslik kabi tartib qoidalar yozib qo'yilar edi.

Teatrarda tomoshabin xavfsizligi bo'yicha ham juda og'ir ahvolda edi. Chiqish joylarning yetishmasligi, yong'inlar va turli favqulotda holatlar turli xavflarni keltirib chiqarar edi.

Tomoshabinlar bilan bog'liq yana bir muammo bu ayollar va yosh bolalar edi. Bu davrlarda ayollarning teatrlerga borishlariga qattiq qarshilik ko'rsatilar edi.

Tomoshabinlarning bu davrdagi holatini ko'z oldimizga keltirar ekanmiz bu davrda teatrlar tomoshabinlar tarafidan qanday qabul qilinganligini ham o'rganib chiqishimiz kerak. Hali yangi bir sanat turini tanigan jamiyatning teatri qanday bo'lishi kerak edi, bu teatrdan nimalarni kutishimiz mumkin edi? O'sh davr nashrlarida bu haqda ko'pgina fikrlar bildiriladi.

Teatni tushunib yetishda avval uni nima uchun keraklilgi haqida so'z yuritar edi. Teatrga bo'lgan ehtiyoj bu rivojlangan davlatlarning hammasida o'ziga xos rivojlangan teatrlari borligi deb bilishardi, yani har qanday rivojlanayotgan davlatlarning o'zini teatri bo'lishi kerak degan tushunchadan iborat edi.

Teatrning maqsadi dam olishmi yoki o'rgatish, yoki bo'lmasa foydalimi yoki zararliligi haqidagi tortishmalar uzoq davom etardi. Ammo o'sha davrlarda teatrni bir dam olish vositasi ekanligi hech kim ilgari surmas edi. Dam olish va foydali taraflarini birlashtirgan holda asarlar yozgın yozuvchi bu Namik Kemal hisoblanadi. Uning ko'pgina asarlarini maroq bilan tomosha qilganlar.

Bu davr yozuvchilarining o'ziga xos xuxuxiyati shundaki ular o'sha davr yevropa madaniyati ta'sirida teatning siyosiy va axloqiy taraflariga katta etibor berishar edi. Ayniqla istibod davrining eng avjiga chiqqan imperatorlik yillarda ham sahnalashtirilayotgan asarlarda siyosiy muvozanatning me'yorida bo'lishi hukumat davrlarida bu jarayonlarga nisbatan hech qanday salbiy ta'sir o'tkazishlar bo'lмаган. Teatrning bu davrlaridagi asosiy ta'siri, sahnalashtirilayotgan asarlar orqali insonlar ongiga yangi davr rivojlanish va xurriyat xislarini sanatkaronada joylashtirish bo'ldi va bu yerda teatr eng kuchli vosita vazifasini bajaradi.

II. Istibdod davrida aktyo'rlik va teatr sanati.

Teatning asosiy dastaklovchilari uning tomashabinlari bo'lsa, boshqa bir poydevori uning aktorlaridir. Bulardan bittasi bo'lmasa teatr tushunchasini tassavur qilish qiyin. Turkiyada boshlangan g'arb teatri uchun hamma narsadan oldin unga aktyor toppish qiyin edi. Turkiyada yashaydigan armanlarning ozgina qismi bu kasbni egallagan edilar. Ular tomoshabinlarni jalb etish uchun keyinchalik turkcha sahnalarni ham ijro eta boshladilar. Ammo Turchani professional ijro etuvchi asl turkchada so'zlashadigan aktyorlarni toppish davr bo'yicha qiyin bo'ldi. Asosan musulmon aktyorlarga ehtiyoj katta edi, zotan musulmon ayol o'yinchilarni toppish imkonsiz edi. Ilk milliy teatrimiz sanalmish Gullu Ag'on Usmonlik teatri asosan turk aktorlariga va turk yozuvchilariga o'z eshiklarini ochdi. Aytib o'tkanizdek ilk davrlarda professional aktyorlarni toppish mushkul ish edi. Istibdod hukumatining qo'llab quvatlashi bilan teatrlerga o'qish va yozishni bilgan har qanday talabgorni olishga majbur edilar shu sababli o'qish yozishni biladiganlar davlat idoralariga shoshilar edilar. Buning ustiga ularga teatr sanatidan bilib beriladigan ustozlar yetishmovchiligi muamosi turar edi. Bu borada yana muamolar o'rtaga chiqar edi yani asosan talabgorlar turkiyaning turli viloyatlaridan kelganliklari hamda so'zlashish lajhalarini turli xil bo'lganligi sababli sahnalashtirilayotgan asarlar qaysi lajhada bo'lishi kerakligi oldinda katta masala bo'lib qoldi. Yozuvchilarining yetishmasligi, tarjima asarlarning saviyasi pastligi hamda hech kim o'z ishini vaqtida bajarmasligi katta muammolar keltirib chiqarardi. Haqiqatdan ham Gullu Ag'on teatrining eng dolzarb muamolaridan biri

sheva har xilligi edi. Aktyorlarning ko'pchiligi Arman millatiga mansubligi va ularning turkchani buzib talaffuz etishlari bu davr teatrining eng dolzarb masalalaridan edi. Talaffuz bo'yicha eng asosiy qadam Usmonli Gullu Agrop teatrida bosildi. 1873 yilda bir gazetada Gedikpasha teatri yangidan jihozlanjagi, va Rashidpasha, Namak Kemal, Xalet Bey, Ali bey, va Gullu Agopdan tashkil topgan tashkilot o'z ishini boshladi Bulardan Namak Kemal va Alibey bu davrning asosiy yozuvchilaridan biridirlar. Nuri Bey imtixon ishlarini olib borar edi. Xalet Bey asarlarni tarjimasi ishlarini boshqarardi.

Tashkilot raisi etib Rashida Pasha tayinlangan edi. Tashkilot bir tarafdan sanatshunoslik va yozilgan matnlarni tekshirish guruhlaridan tashkil topgani holda, Namik Kemal va Ali Beylar talaffuz darslari berishardi. Ushbu tashkilot bu kabi tashkilotlarning turli viloyatlarda tashkil topishiga turtki bo'ladi. Bundan tashkilotlarning tashkil topishi yuqorida aytib o'tganimiz ushbu davrdagi sahna tili muammosini hal qilishda ulkan xissa qo'shdi. Aktyorlarning teatr boshqaruvi bilan bo'lgan munosabatlari hamda ularning oladigan maoshlari ham o'zaro shartnomalar asosida amalga oshilar edi. Aktyorlarning diniy qarashlari ham sahnalashtirilayotgan asarlarda o'z aksini topar edi va diniy qarashlarga hech tasir o'tkazmas edi. Teatr sanatining yanada rivojlanishida g'rb davlatlardan kelgan aktyorlarning sahnalashtirgan asarlari ham o'z xissasini qo'shar edi.

Musulmon aktyorlardan ilk professional aktyor Axmad Nejim bo'lib u Gulli Agopning Usmonli teatrida faoliyat olib brogan. Ahmad Fexim ilk musulmon aktyor o'zi bo'lganligini, so'ngra Nurin kelganligi ammo uning bu borada ko'zi yetmaganligi uchun tezda tark etganligini aytib o'tadi.

Ahmad Nejibning ilk turk professional aktyori bo'lishiga qaramay Ahmed Fexim (1857 - 1930)ning ham aktyor, rejissyor, sahnalashtiruvchi va dekoratsiya ustasi sifatida taniyimiz.

Ismlari tanilgan qolgan musliman aktyorlar shulardir : Atxam, Ismoil Xaqqiy, Mehmet Edib, Selim, Mehmet Vamik, Mustafo Fazli, Ibrohim Efendi va boshqalar.

Arman millatiga mansub aktyorlar haqida so'z yuritadigan bo'lsak ayollar orasidan shu ismlarni sanab o'tishimiz mumkin: Eranuli Karanshan, Vergina Karashyan, Aznif Xraja, Mari Nirvat, Koxarik Shirinyan va boshqalar.

Bu davrdagi sahna tuzilishlari bo'yicha ma'lumotlarimiz juda kam. Bu borada chet el teatr jamoalarining sahna dekoratsiyasi va tuzilishlaridagi tajribalari ibrat bo'lgan. Bundan tashqari ushbu jamoalarning sahna tuzatuvchilari turkiyada qolib yerlik aholi teatrlerida faoliyat ko'rasatardilar. Nodji, Asti, Menadir, Georgiy kabi sahna tuzatuvchilari va dekorativchilari bu borada katta xizmat ko'rsatganlar. Xatto bu davrlarda ham g'arb teatrlari sahna ko'rinishlari yetarli darajada rivojlangan emasdi. Lug'atimizga kirib kelgan rejissyor so'zi aslida fransuzcha so'z bo'lib sahnalashtiruvchi ma'nosini bildiradi. Har bir teatrning o'zining asosiy dekorativ moslamalari bor edi. Teatr jamoalari bu moslamalardan asarga xos ravishda foydalanardilar. Axmat Fexim, Gidekpasha teatrida alohida 95 hil pardasi bo'lganligini bular orasida g'orlar tasviri , mehmonxona tasviri, maydon, ko'cha hamda turli manzaralarni tasvirlovchi pardalari bo'lganligini aytib o'tadi.

III. Istibdod davrida teatr jamoalari

Bu jamoalarni aytib o'tar ekanmiz asosiy so'z Usmonli teatrining 1870 – yillardagi faoliyatiga qaratiladi. Aslidan ko'proq armancha sahnalashtirilgan asarlar bilan birgalikda turkcha asarlarni ham sahnalashtirgan jamoalar haqida so'z yuritamiz. Shuningdek Usmonli teatri boshqaruvchilari va aktyorlari ushbu davrda yetishib chiqishdi. To'la qonli teatr bo'limgan holda teatr tomoshalarida jonbozlik ko'rsatgan ko'cha ko'yda tomoshalar ko'rsatgan Oganne Kasparyaning tashkil etgan jamoasini aytib o'tishimiz joiz. 1846 – yilda Beyo'g'lu komissariyatidan komissari Musa Beyning ko'rsatmasi bilan ushbu viloyatdan yer sotib olib ilk yevropacha taxtadan sahna yeri tashkil etdi. Bu yerda asosan sirk tomoshalari, turli kulgili sahnalar va hamda anananaviy tomoshalar ko'rsatilar edi. Bir qancha vaqt o'tib drama sahnalari ham sahnalashtirila boshladi. 1851 – yilda Pangalti va Taksimshaxarchalari orasida joylashgan yerga kichik teatr binosi qurib Migirdich Jezaryan yordami bilan binoni ishga tushirishdi. Ushbu jamoaning faoliyati 1866 – yilga qadar davom etdi. Kasparyan 1867 – yilda vafot etdi. Arman jamoasi teatr

binolari qurishi, ilk professional jamoa bo'lishi., hamda turk milliy teatriga yaqin uslubda bo'lishi uning Gedik pasha teatr jamoasi tashkil topishida juda katta hissa qo'shgandir. Ammo Kasparyan jamoasi turkcha sahnalar namoish etib etmaganligini bilmaymiz. Bu borada Sirapyan Xakimyanning jamoasini olishimiz mumkin. Ta'limini Italiya va Venetsiyada tamomlagan Xakimyan 1857 yilda yozgan saxna asarlarini bir kitobda to'pladi. 1856 yilda keyinchalik teatrchilikda asosiy o'rinni egallagan kishilardan jamoa tashkil etdi. Boshlanishida Italyancha keyinchalik Turkcha asarlar saxnalashtirdi. Ushbu asarlarini Usmonli saroylarida xam namoyish etdi so'ngra ruhsat olganidan so'ng Arman tilida xam asarlar saxnalashtirdi. Istepyaning Eshkiyan bilan boshlangan bu jamoasi turk teatrchiligining rivojlanishida asosiy rol o'ynagan davrlardan biri bo'ldi. 1861 yilda ilk saxna tomoshalari tashkil etgan Shark jamoasi ikkinchi asosiy davrdir. Bu davrda Usmonli teatri aktyorlari bilan birgalikda birikkan xolda aktyorlar professional daraja qozondilar.

1862-64 yillardagi o'zgarishlar Turkcha saxna asarlariga nisbatan ahamiyatga ega. Ushbu o'zgarishlar davrida Gullu Agopning kelajagi va rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratdi. Ekshiyan va boshqa aktyorlar teatr boshqaruvchilari bilan pul borasida kelishmovchilik bo'lib o'tgandan so'ng ularning bir qanchasi Izmirga ketib qoldilar. Izmirda o'ziga xos muhit bor edi. U yerda ancha oldin tashkil etilgan jamoani ya'ni Vaspuragani o'zlariga ism etib tayinladilar. U yerda Kommorano nomli italiyan jamoasi tomoshalar o'tkazayotgan edi. Ikki jamoa teatr birlashdilar. Sahna asarlari orasida Arman yozuvchilarining 25 ga yaqin melodrama va komediyalari bor edi. Butun teatr davri davomida 39 marotaba tamosha berishdi. Bu jamoa Armancha, Fransuzcha, Turkcha va Italyancha tomosha ko'rsatar edi. 1864 – yil yoz oyida Eshkiyan jamoasi tarqaldi va Istanbulga keldilar.

Vaspuragening jamoasi Izmirda o'z faoliyatini olib borar ekan Istanbulda teatr tomoshalari sust borar edi. Berdos Magakyan yangi bir jamoa tuzdi. Magakyanning turkcha sahnalar ham sahnalashtirganini bilamiz. Yuqorida aytib o'tganimizdek Sharq teatr jamoasining tarqalib ketishi natijasida uning o'rniga

uchta yangi jamoa tashkil etildi. Bularidan biri Sharq Teatridan ajralib chiqqanlar, qolganlari esa Gullu Agopni tashkil etgan Osiyo jamoasi, uchinchisi esa Ajemyan va boshqalar tashkil etgan jamoalar.

Usmonli Teatrining boshlanishi va tugash davrlarini aniq belgilash ma'lum qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Chunki Osiyo kompaniyasi ish yuritar ekan Usmonli teatri ham bor edi. Ilk bor turkcha sahnalarni Osiyo jamoasi tashkil etgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

1870 – yil taetr tarixi uchun eng ahamiyatli davrdir. Teatrlarga maqom berish hamda Milliy Teatr tashkil etish fikrlari bildirildi. Bu fikr egasi Ali Pasha edi. 28 – aprel 1869 – yilda Dorilfunundan Ali Suavi Efendi Ali Pasha nomli bir majlis o'tkazish uchun yuqori lavozimlarda faoliyat ko'rsatadigan kishilarni taklif etdi. Bundan maqsad milliy teatr tashkil etish edi. Bular orasida Turk, Rim, Arman va Bolgarlar bor edilar. Teatr ismini "Sultonlik Teatri" bo'lishini kelishib oldilar. Nizomga ko'ra bu teatrarda tanlanib va axloq chegaralaridan chiqmagan xolda Turkcha, Yunoncha va Bolgarcha asarlar sahnalashtirilari edi. Usmonli teatri turkcha sahnalashtirish bilan birga Armancha tomoshalar ham berib borar edi. 1872 – 73 yillar Usmonli teatrining porloq yillar hisoblanadi.

1876 – yillarda Usmonli Teatri inqirozga uchradi. 1877 – yil Turk-Rus urushi davrida Usmonli Teatri ko'proq vatanparvarlik tuyg'ularini targ'ib etuvchi asarlarga e'tibor bergen edi.

G'ARB TA'SIRIDAGI TURK TEATRI

An'anaviy teatrlardan farqli ravishda g'arb ta'siridagi turk teatri uch davrga bo'linadi. Bular: 1839 yildan 1908 yilgacha bo'lgan davr Tanzimot davri teatri, 1908 yildan 1923 yilgacha Mashrutiyat davri teatri hamda 1923 yildan hozirgacha jumhuriyat davri teatri hisoblanadi. Har bir davrning boshlanish va tugallanish payti siyosiy va konstitusion hayotda ham ma'lum o'zgarishlarning yuzaga kelgan yillarga to'g'ri keladi. Masalan, "Xatti Humoyun" o'qilgan 1839 yilda Istanbulda to'rtta teatr ochiladi. Quyidagi ham ta'kidlanganidek, teatr binolarining qad rostlashi G'arb teatrining ildiz otishida muhim qadam bo'ldi. 1908 yil hurriyat e'lon qilingan, mashrutiyat qabul qilingan yil bo'lish bilan birga teatr sohasida ham

muhim sana bo'ldi. Chunki 1884 yilgan 1908 yilgacha bo'lgan davr oralig'ida sulton Abdulhamid 2 ning qattiq nazorati ostida teatr sohasi rivojlanishdan to'xtab, yozuvchilar bu yo'nalishda asar yozmay qo'yishdi. 1908 yil hurriyat e'lon qilinishi bilan qisqa vaqt ichida bir qator sahna asarlari yaratildi. Garchi 1923 yil mashrutiyatning to'liq tugallangan payti sanalmaydi, ammo konstitusion o'zgarish asosida jumhuriyat ya'ni respublika sifatida e'lon qilinishi muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, ushbu yil teatr tarixida ham burilish nuqtasi sanaladi. Turk teatrining muhim kamchiliklaridan bir hisoblangan ayol aktrissalarning mavjud emasligi muammosi 1923 yilda Otaturkning qo'llab-quvvatlashi bilan uzil-kesil hal etildi va endi ayollar hech bir qarshiliksiz sahnada rol ijro eta boshladilar. Bu ham teatr tarixida muhim bosqichlardan biri sanaladi.

Ushbu kitob turk teatr tarixi haqida muxtasar ma'lumot hisoblanadi. Ayni shu mavzuda yaratilgan 2 ming sahifadan oshiq to'rt jildlik "Turk teatri tarixi"ning (An'anaviy turk teatri (574 sahifa), Tanzimat davri turk teatri (465 sahifa), Mashrutiyat davri turk teatri (311 sahifa) hamda Jumhuriyat davri turk teatri (700 sahifa)) qisqa shaklidir.

Bu yerda dastlabki uch davr haqida batafsil ma'lumot berilsa-da, jumhuriyat davri turk teatri rivojlanish yo'lida davom etayotgani bois ushbu davr tarixda qolgan dastlabki davrlarga nisbatan kamroq ma'lumot berilgan.

1. Tanzimat va Istibdod davri teatri (1839-1908)

Tanzimat davrida tomoshabin va qarashlar. Hamma narsa boshidan boshlangan edi. Aktyorlar, rejissiyorlar, senariya mualliflar ishlarni noldan qanday boshlagan bo'lishsa, tomoshabin uchun ham teatr yangilik edi. Bu dunyo ular uchun hali batamom o'zgacha bir dunyo bo'lganini Qorako'z, Maddoh, O'rta o'yini singari ibridoiy teatr tomoshalariga o'rgangan tomoshabinning hali "g'o'r" bo'lgan qarashlaridan anglash mumkin. Shu boisdan ulardan yangi sahna asarlarini o'sha zahotiyoy anglash, qabul qilishni kutish to'g'ri bo'lmazı, albatta.

Dastlabki tomoshalar turklar zich joylashgan Istanbul yoqasida emas, balki Beyo'g'lida o'tkazildi. Teatr tomoshasining aksariyat hollarda chet tilda ko'rsatilishi, yo'llarning yomonligi, transportning muammo ekani, qolaversa,

kechasi ko'chaga chiqish xavli ekani hisobga olinsa, bunday tomoshalarga yuragi baquvvat kishilargina borishi mumkin edi.

Beyo'g'li o'sha mahallarda juda xavfli edi. Qimorxonalarda chiqqan kishilar o'sha paytda teatrdan chiqqan tomoshabinlarga hujum qilib, pullarini tortib olar, ularni pichoqlashgacha jazm qilishardi. Shunga qaramay turklarning bunday tomoshalarga borishdan to'xtamaganliklarini Beyo'g'lining shimolida (Taqsim hududi bo'lsa kerak) insho etilgan ikkita amfiteatrga borishda davom etganliklaridan anglashimiz mumkin.

Istanbulning turklar qismida teatr qurilishi uzoq tarixga ega. Biroq bu yerda turk teatr tomoshalari keyinchalik ko'rsatilgan. Shu bilan birga Gedikpashadagi Usmoniyalar teatrining ochilishi Gulli Agopdan oldingi yillarga to'g'ri keladi. Mana shu teatrning bir e'lonida xalqning Beyo'g'liga borish va ortiqcha sarf-xarajatdan xalos qilish aytilgan edi. Gulli Agop boshqaruv ostidagi tomoshalar Istanbul yoqasida muntazam ravishda va tez-tez ko'rsatila boshlagach, bu safar Beyo'g'lidagilarning kelishi qiyinlashdi. Ahmed Vofiq Poshoning bir chet ellik do'sti o'z xotiralarida Beyo'g'lidagi teatr ixlosmandlarining qorong'ida uzoq yo'lni bosib o'tib, Gedikpasha teatriga tomosha ko'rishga kelganini yozgan edi. Shu bilan birga Istanbul yoqasi teatr guruhi Beyo'g'li va boshqa hududlarda tomoshalar ko'rsatishardi.

Albatta tomoshalar paytida turli kelishmovchiliklar, janjallar bo'lib turardi. Ba'zida sahnadagi diniy biror holat yuzasidan kelishmovchilik chiqsa, ba'zan ayollarning tomoshani ko'rishga xalaqiy beradigan shlyapalari janjalga sabab bo'lardi. Bunday holatlarda tomoshalar to'xtatilib, polisiya xodimlari janjal chiqarganlarni olib ketardi va teatr ham vaqtinchalik yopilardi. Hukumat bunday janjallarning oldini olish uchun yo teatrni yopib qo'yari, yo bu bilan bog'liq dastur chiqarardi. Naum teatridagi bir janjal sabab chiqarilgan shunday dasturlarning biri haqida gazetadan o'qiyimiz.

Tomoshabinlarning tartibni saqlashlari uchun qat'iy chora-tadbirlar ishlab chiqarishga harakat qilinardi. 1859 yilda Gedikpasha teatri o'rnida, Tatlikuyu yaqinida qurilgan teatr uchun Majlis Valoyi Ahkomi Adliya besh bo'lim, 31 va

yana bitta qo'shimcha moddadan iborat qonun hujjati tayyorladi. Mana shu qonun hujjatining 4-bo'lim, 25, 26, 27 va 28-moddalari tomoshabinlar bilan bog'liq edi. Ushbu moddalarga ko'ra, tomoshabinlarning teatr zaliga quroq, tayoq, soyabon bilan va mast holatda kirishlari, maxsus joydan boshqa yerda sigaret chekishlari, tomosha asnosida baqirishlari va so'kinib gapirishlari, odob-axloq me'yorlarini buzhishlari taqiqlangan edi. Shuningdek, yosh bola bilan kelganlar farzandlarining xatti-harakatlari uchun mas'ul ekanliklari va yuqoridagi holatlar yuz bergani taqdirda teatr zalidan chiqarib yuborishlari belgilab qo'yilgan edi. Qolaversa, pardalar oralig'ida, teatrning chiqishida, loja yo'laklarida o'yin-kulgi qilish ham taqiqlangan. Butun bu holatlarni nazorat qiluvchi kishilar va ularning vazifalari ham ko'rsatib o'tilgan. Ko'p hollarda xalqni teatr madaniyatiga o'rgatish uchun harakat qilingan. Ayniqsa, Ahmed Vofiq Posho Bursa hokimi bo'lgan paytda xalqqa tomoshabinlik madaniyati o'rgatish uchun bir qator ishlarni amalgamoshirgan edi.

Ahmad Vofiq Poshoning Bursa hokimligidan olib tashlanishi haqida gazelar xabar bosgan edi. Bunga ko'ra, Poshoga qo'yilgan abylovlar orasida xalqni teatrlargacha borishga majbur kilgani, tomosha mahalida faqatgina uning ishorasi bilan aktyorlarning olqishlashgani, bunga bo'ysunmagan kishiga esa posho tomonidan jazo berilgani yozilgan edi. Ahmad Vofiq Poshoning bu harakatlari zo'ravonlikka asoslansa-da, aslida u xalqni yaxshilikka, madaniyatga yo'naltirayotgan edi. Bursadagi teatr faoliyatida o'zining munosib hissasini qo'shgan Ahmad Fahm afandi o'z xotiralarida poshoning Moler singari mashhur adiblarning asarlariga o'rin bergenini, xalq avvaliga bu asarlarni u qadar qabul qilmagan bo'lsa-da, posho Bursadan ketgach teatr sahnasida qo'yilgan melodramma va boshqa yengil asarlardan so'ng poshoning turk tiliga o'girgan o'sha asarlarining qardiroq ekanini anglashganini yozadi.

Dastlabki vaqtarda tomoshabinlik qoidalari e'lonlarda eslatib o'tilardi. Bunda tomoshabinlarning o'z o'rinalidan boshqa o'ringa o'tirmasliklari, sigaret chekmasliklari, pardalar oralig'ida hamda tomosha asnosida odob-axloq qoidalariга rioya qilishlari, shuningdek obuna usullari, xizmatkorlarning o'z

xo'jayinlarini qaerda kutib turishlari va ularning mas'uliyatlari ko'rsatib o'tilgan edi. Teatrning tomoshabinga nisbatan mas'uliyatlarini bajarmaganiga faqatgina san'at jihatidan qarash kerak. Chunki u tomoshabinning tinchligi va xavfsizligini ta'minlashi lozim edi. Murod afandining kuzatishlariga ko'ra Gedikpasha teatrining havosiz va tutunga to'la ekanini aytgan edik. Tomoshabinlarning pardalar oralig'ida dam olishlari va sigaret chekishlari uchun sharoit yaratilganmi? Gazetalarda ba'zi holatlarda mana shu masalalar ham ko'tarilardi.

Teatrler tomoshabinning xavfsizligi jihatdan ham yomon ahvolda edi. Chiqish joylarining yetarli emasligi yong'in va shu singari favqulodda holatlarda xalq uchun xavfli bo'lishi mumkin edi.

Tomoshabinlar bilan bog'liq yana bir muammo ayollar va bolalarga aloqador edi. Ayollar tartibsizlik sabab ayollar uchun maxsus tomoshalarga borar yoki ular uchun maxsus o'rirlarda o'tirishardi. Shu sababli ayollarning iloji boricha teatrلarga bormasiklari talab qilinardi. Masalan, 1859 yilda Istanbul teatri dasturiga qo'shimcha tarzda chiqarilgan 4 Ramazон 1276 sanali hujjatda ayollarni ichkariga kiritish qat'yan taqiqlangan edi. Gulli Agop ham 1879 yilda o'z teatrda ayollar uchun maxsus panjarali o'rirlar tayyorlagani, biroq bu xush qabul qilinmagani ma'lum. Ba'zan mana shu holat bilan bog'liq muammolar kelib chiqqanini, shunga qaramay ayollarning teatrga borishga harakat qilishganini ko'rishimiz mumkin. Qizig'i shundaki, ayollarning teatrga borishlari taqiqlangan bir paytda bolalarga bu borada hech qanday to'siq yo'q edi. O'rta o'yini, Qorako'z tomoshalarini eng ochiq sahnalarini ham bolalar tomosha qila olishardи.

Tomoshabinning o'sha paytdagi qiyofasi tasvir etilarkan ularning teatrga nisbatan qarashlarini ham ko'rsatib o'tish lozim. Ayniqsa, xalq uchun butunlay yangi hodisa hisoblangan teatr qanday bo'lishi kerak edi, uning vazifasi, maqsadi nima edi? Qo'limizda bu savollarga javob berish mumkin bo'lgan uch xil manba mavjud. Birinchisi, nashr etilgan sahna asarlarining kirish va so'ngso'z qismida mualliflar tomonidan yozilgan fikrlar. Ikkinchisi vaqtli matbuotdagи tanqidiy fikrlar va uchinchisi teatr haqida yozilgan ishlar va qarashlardir.

Bularning barchasida avvalo teatrning muhim bir hodisa ekanligi uqtirildi. Rivojlangan o'lkalarning o'z teatri mavjud ekanligi, shuning uchun turklarning ham o'z teatri bo'lishi lozimligi xalqni bu nuqtada birlashtirardi.

Teatrning vazifasi o'yin-kulgimi, tarbiyalashmi yoki foydali bo'lishmi ekanligi xususdagi munozalarlarning ildizi uzoq tarixga borib taqaladi. Biroq hech kim teatrning faqatgina o'yin-kulgidan iborat ekani fikrini ilgari surishmagan. Bu borada eng to'liq va qimmatli fikrlarini bayon qilgan adib Nomiq Kamol sanaladi. Uning "Diogen"dagi imzosiz beshta yozushi, "Xadiqa", "Ibrat" va "Sharq"dagi bittadan maqolasi, mashhur "Jalol muqaddimasi" va boshqa ishlarida teatrning o'yin-kulgi va foydali ekani haqidagi vazifasi ustida to'xtalgan.

Ushbu davr adiblari Fransiyada 18-asrda Merisier va Diderotlar tomonidan ilgari surilgan nazariya asosida yuzaga kelgan va Rosse tomonidan e'tiroz bildirilgan teatrning axloqiy va siyosiy vazifasi fikrini himoya qilishgan. Mana shu qarashlar natijasi sifatida yuzaga chiqqan drama janri ham mana shu boisdan e'tibor qozongan edi. Yozuvchilar bu nazariyani o'z asarlarida to'liq ishlay olishmagan bo'lsa-da, o'z so'z boshilarida ushbu nazariyani himoya qilgan edilar. Bu ularning asarları uchun himoya vazifasini ham o'tagan. Masalan, istibdod eng kuchli bo'lgan davrda ham aslida yaxshilarning albatta o'z maqsadlariga erishishi va yomonlarning jazolanishi fikrini ilgari surgan asarlar muqaddimadagi "himoya so'zi" yordamida o'z hayotlarini saqlab qolgan edi.

Sahna asari mavzusi va turlari tekshirilganda yanayam aniqroq ko'rindigan bu muammolar bilan birga sof teatrni qabul qilish madaniyat rivojidagi ilgari otilgan odim ekani, ma'lum bir madaniy saviyaga yuksalish uchun muhim ahamiyatga egaekani, qolaversa, xalqni tarbiyalashda muhim vosita ekani ta'kidlangan edi.

2. Tanzimatda aktyorlik va teatr san'ati.

Teatrning asosiy unsuri bo'lgan tomoshabin ham boshqa bir aktyordir. Turkiyada yangi boshlangan G'arb teatri uchun hamma narsadan avval aktyor izlash kuch edi. Birinchi bo'lib bu ishni Turkiyadagi Armanlar boshlaganlar. Tomoshabin tanlash uchun ketayotib Turkcha o'ynashni boshladilar. Faqat, komil, Turkchada yaxshi so'zlashgan, professional faol aktyor topish muammosi tanzimat

davrida ozaydi. Hususan muslimon aktyor kerak edi. Bu yerda muslimon ayollarga teatrda oynash mumkin emas edi. Boshqa tomondan turklarda qadimdan bir aktyorlik ananasi bor edi. O'rta o'yin san'atchilari aktyorlik san'atidan juda yetuk edilar. Birinchi Milliy Teatrimiz hisoblangan Gullu Agopning Usmonli Teatri asosan turk aktyorlariga va turk yozuvchilariga eshiklarini ochishlariga sabab bo'ldi. Haqiqatdan teatrning boshlanish yillarda e'lon va takliflar o'z ta'sirini ko'rsatdi.

E'lon ta'sirini ko'rsatgan edi, nisbatga ko'ra kam bo'lish bilan birga kerak Usmonli Teatrida, boshqa jamiyatlarda Muslimon aktyorlarga duch kelgan edilar. Faqat, bu mavzuning turli muammolari ham bor edi. Garchi Gullu Agop gazetalarga, o'zining nashrlariga teatrining juda rivojlanayotganini yozsa ham Murod Bey laqabi bilan Franz von Wernerga dard bilan qisqacha shunday dedi: o'qishni yozishni bilan barcha davlat ishlariga borayotgan edi. Ayol aktyor topish muammo edi. Ertangi aktyorlarni tayyorlovchi o'qituvchi esa yo'q. Barcha turli shevada so'zlashsa sahna tili qanday bo'ladi? Asar toppish ham muammo. Hech kim vazifasini vaqtida qilmaydi. Xalqning tushummovchiligidan, aktyorlarning g'iybatlaridan to'yib kettim. Murod Bey Gulluning bu dardlarini tinglab uning siqilishidan hursand bo'ldi. Ayol aktyorlardan Arman qizlarini olganini, sahnada hamma o'zi bilgan tilda o'naganini, teatrni qanday tushunishni esa xalqga qo'yib bergenini aytdi. Bularni to'g'llash uchun esa sahna asarini bir tilga tarjima qilinishini kerakligini maslahat berdi.

Haqiqatdan ham Gullu Agopning muammolarining orasida eng muhimi til muammosidir. Aktyorlarning ko'pi arman, bularning turkchasi ham buzuq bo'lgani uchun, teatrimizning bu davrdagi mavzusi shu edi. Armanlarning tilidagi buzuqliklarga misol: "maşrapa" o'rniga "marşapa", "bayram" o'rniga "baryam", "ense" o'rniga "ekse" va "evet efendim" o'rniga "he efendim" deb gapirishadi. Buni to'g'llash uchun ogohlantirish ham qilishdi. Aybni faqat arman aktyorlariga ag'darish ham noto'g'ri, spektakl yozuvchilarining adabiy tili ve Muslimon aktyorlarning ham noto'gri turkchalari Diyojenning 161 – sonida ayblangan.

Talaffuz mavzusida birinchi qadamni Gullu Agop Usmonli teatrda qo'ydi. 1873 yilda bir gazetada Getikposho teatrining yangidan tashkillashtirilishini, Rashit Posho, Kemal Bey (Namiq Kemal), Halet Bey, Ali Bey, Nuri Bey va Gullu Agopdan tashkil topgan kengash ishlay boshladi. Bulardan Namiq Kemal, Ali Bey bu davrning muhim spektakl yozuvchilaridandir. Nuri Beyning bir tajribasi bor edi. Halet Bey, ko'p spektakllarning tarjimasiga yordam bergen edi. Kengashga rais qilib, vazirlik qilgan Reshit Posho saylandi.

Bursada Ahmet Vefik Poshoning yordami bilan qurilgan teatrda ham shunday kengash bor edi. Teatr Muhibbi Anjumani deb nomlangan bu kengashda Fransuz konsuli, Fransuz konsulining tarjimoni, Avstraliya – Makar konsuli, oqsoqollardan Rasim Bey, Shakir Afandi bor edi.

Aktyorlarning teatr boshqaruvi bilan aloqalari, olgan pullari ham so'zlashuv va ko'rsatma bilan to'g'irlanayotgan edi. Masalan, Schillerning Haydutlari Usmonli jamiyatida o'ynalganida, Musulmon aktyorlardan Ahmet Nejip bilan Husnu Afandi o'yinning Bohemya o'rmonlarida bo'lган 2 – pardasida kiyimlaridan va soqollaridan vozkechmaganlar, sahnaga shunday chiqishgan, Bularni to'g'irlash uchun vaqt vaqt bilan bir qancha tashabbuslar bo'lган. Gullu Agopning Usmonli Teatri, teatr bilan aktyorlar orasida so'zlashuv eskizi tayyorlagan edi. Har bir aktyor uchun alohida – alohida tayyorlangan bu 9 moddalik bosqichli so'zlashuvda, bir tomonda aktyor, boshqa tarafda o'rgatuvchi Gullu Agop bordir. 1. Moddada aktyor Gullu Agopga va uning tayinlagan sahna o'rgatuvchisiga, sahnaga ko'ra bog'liq bo'lib, yuklangan vazifasini qilishda xato qilmasligidir. 2. Moddada Gullu Agopning ruxsatisiz hech qayerda spektakl o'ynamaydi, bu turli joylarda ishlay olmaydi.

3. Moddada Ramazonda
har kun, boshqa vaqlarda 4, 5 va 6 kungacha spektakl qo'yilganda, hamma o'z vazifasini qilishi kerak. 4. Moddada ko'rsatmalar boshlanganda yoz va qish vaqtlarida 7 oy ishlab 7 oylik pul olishi mumkin; ish 9 oyga cho'zilsa yana shu moddalarga ko'ra ishlab, 2 oy ichida necha kun ishlasa shuncha pul oladi. Kasal bo'lганда oylik olib tashlanadi. 5. Moddada aktyor turkcha va armancha ko'rsatmalarda berilgan rollarni talashmasdan o'ynashi. 6. Moddada aktyor Gullu

Agopning yonida ishlab topgan pulini oyma – oy Usmonli Lirasida oladi. Oylik oyning 15 sanasida beriladi agar berilmasa keyingi oyning boshida beriladi. 7. Moddada aktyorning har biri uchun qish va yoz oylariga mahsus rol beriladi. Bu esa rolni olgan aktyorga foyda keltiradi. Spektakldan tushgan foydaning yarimi Gullu Agopga yarimi esa bosh rolni oynagan aktyorga beriladi. 8. Moddada saroy bilan bog'liq bayramlarda yoki Podishox oldida berilgan yoki shunga o'xshash spektakllarda aktyor oyligi va yol haqqidan boshqa pul so'ramasdan o'z vazifasini qiladi. Faqatgina u uchun berilgan hadiya pullarini o'zida olib qoladi. 9. Moddada aktyor teatrning ichki qonunlariga bo'y sunadi. Vazifasida bir xato qilib Gullu Afandiga zarar keltirsa bu zararni qoplayadi. Agar so'zlashuvda xatolik bo'lsa oylik puli berilmaydi.

Aktyorlik bilan bog'lik muhim mavzu yo'qdir. Saroya Musiqa i Humoyun bir maktab kabi edi. Bu yerda musiqa bilan birga teatr bilimi ham berilar edi. Faqat saroydan tashqaridagi aktyorlar shogirt bo'lib o'rganishar edi aktyorlikni. Birinchi arman aktyorlarining kelib chiqishida, Italiya va Yevropaning boshqa yerlarida bilim olgam armanlarning foydasi bo'lган.

Yetishtirishda Nestor Noji kabi Turkiyada qolgan boshqalarning ham katta hissasi bordir, Eti, Eugene Meynadier, ham orkestr ham sahna o'qituvchisi Solie, dekorativ san'atchilari Merlo va Fornari kabi. Musiqali o'yinlar sahnaga qo'yan mahalliy xalqlarda orkestr o'qituvchilari ham chet ellikdir. b chet elliklarning ko'pi tashqaridan bir jamiyat bilan kelganlar, Turkiyaga tez – tez kelgan ko'p chet elliklarni ham katta yordami bo'lган edi. Hususan, Nemis aktyorlarini tamosha qilish G'arb sahnasi san'atchilariga katta foydasi bo'lган. Bu vaqtida Yevropaning mashxur san'atchilari ham kelgan edi.

Bu vaqtning ma'lum aktyorlaridan Musulmon aktyorlarini ko'rishimiz mumkin. Musulmon aktyorlarining sahnaga chiqishi 1847 yillarda saroya bo'lган. Abdulhamit davrida saroya teatrning o'qituvchisi Ilyos Bey edi. Faqat Musiqa i o'qituvchisi Mehmet Zati ham dars berar edi. Aktyorlar orasida Kolag'asi Halil Bey, Vasif Bey, Garip Ihsan Bey, Halim Bey, Nazif, Fuat, Hilmi, Ali Ilyas, Ismat Halil, Hakki, Cherkes Vehbi, Salih, Umar va boshqalar bor edi. Turk teatrining II –

Mashxurlik va Respublika davrlarining boshlarida eng muhim sahna san'atchilarimizdan biri Neshit ham shu davrda yetishgan.

G'arb ma'nosida birinchi Musulmon professional teatr aktyori Ahmet Nejib Afandi (? – 1898) Gullu Agopning Usmonli Teatrida oynagan edi. Ahmet Fehim, birinchi Musulmon aktyori bo'lganini, keyin Nurining kelgani, lekin u bilan rollari bir xil bo'lgani uchun teatrdan ketgan edi.

Ahmet Nejibning birinchi Turk professional aktyori bo'lishiga qaramay, Ahmet Fehim (1857-1930) aktyor, o'qituvchi, yetishtiruvchi, dekorativchi, sahnalashtiruvchi bo'lib birinchi Turk Teatr odami bo'lagan.

Boshqa Musulmon aktyorlar: Husnu, Ismoil Hakki, Mehmet Edib, Selim, Mehmet Vamik, Mustafo Fozil, Ibrohim Afandi, Murod Afandi, M.Orif Afandi.

Ayol arman aktyorlari: Yeranuhi Karakashyan, Vergine Karakashyan, Aznif Hratcha, Mari Nivart, Siranus, Asdgrik, Shazik, Koyluyan, Koharik, Shirinyan, Bayzur Fasulyejiyan, Aznif va boshqalar. Erkaklar orasida esa: Bedros Atamyan, David Triyans, Karakin Rishtuni, Manuk Sisak, Takvor Nalyan, Dikran Tospatyan, Serovpe Bengliyan Keork Holas, Harutyun Aleksanyan, Benimejiyan, Garmiriyan va boshqalar,

Bu davrda sahna yasatish ma'lumotlarimiz juda kam edi. Avvaliga tamoshalarning rasmlari juda kam edi, keyin tomoshalar tanqidlarida bu mavzularga juda kam e'tibor qaratilgani uchun sahna bezatilishi, dekoratsiyalar va kiyimlar borasida yetarlicha ma'lumotlar yo'q. Chet el teatrlarining tamoshalari sahna bezagi va texnikasi jamiyat uchun namuna bo'lar edi. Bundan tashqari bu jamiyatning sahnalashtiruvchisi va texnik odamlari Turkiyada qolishardi, mahalliy aholi uchun ishlar edilar. Noji, Asti, Meynadier, Soulie, George Gonnet – Levy kabi sahnalashtiruvchilar. Fornari, Merlo kabi dekoratsiyachilarining mahalliy aholilarga juda yordamlari bo'lgan. Faqat, bu tarixda Yevropa teatrida ham sahnalashtiruvchilik unchalik rivojlanmagan edi. Tilimizga kirib kelgan rejisyor so'zi aslida Fransuzchada sahna yo'naltiruvchisi ma'nosidadir.

Gullu Agopning tamoshalarida sahnalashtiruvchilik *manzara nazorati* bilan duch kelardi. Dekorativchi uchun esa *manzara muzeyini* ishlatardi. Sahnalashtiruvchi

yoki manzara noziri bo'lgan mahalliy san'atchilar ham bo'lgan. Tomas Fasulyejiyen, Noji bilan ishlagan Bedros Magakyan, Mardiros Minakyan kabi. Ahmet Fehim bu sahnalashtiruvchilar, dekorativchilar, kiyimlar bilan bog'liq bilim bergandir. Ba'zi vaqtarda matin o'qilishida, harakterlarning ruhlantirilishida, yozuvchilar hususan Usmonli Teatridagi Teatr qo'mitasi yo'l ko'rsatgan deb hisoblaymiz. Haqiqatdan ham Ahmet Fehimning xotiralarida Ahmet Vefik Poshoning sahnada qo'yilgan har bir asarining ruhlantirilishida, yozilish isbotini tushuntirganini, tahlil qilganini, repititsiyalarga kelganini, boshidan oxirigacha ko'rganini, sahna tuzatilishi to'g'risida maslahat bergenini, kiyimlarning ko'rinishini aniqlaganini, Fransiyadan olib kelgan kiyim kitoblaridan hususan Molyerening spektakllaridagi kiyimlarga misol topganini, eski Usmonli kiyimi to'g'risida ma'lumot beganini ko'rishimiz mumkin.

XX ASRDA TURK TEATRLARI

Turkiyaning teatr hayotida Sulton Abdulxamid II ning zulmkorona rejimi 1908 yildagi kichik turk inqilobi natijasida olib tashlangandan so'ng jonlanish kuzatila boshladi. Shuning uchun ham san'at tarixchilari zamonaviy turk teatrining tug'ilish sanasi deb 1908 yilni hisoblaydilar. O'sha davrdagi teatr jamoasi aktyor kuchlarini birlashtirishga va yangi doimiy milliy teatrni yaratishga intildi, biroq hukumatning qo'llab-quvvatlashi, moddiy mablag'larsiz bu barcha harakatlar muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Ko'p sonli teatr jamoalari va yarim professional teatrlar juda kichik muddat faoliyat yuritdilar, hattoki bir mavzumgina ishlagan teatrlar bor edi.

Turkiya madaniyatida G'arbiy Yevropa adabiyotining mumtoz asarlarini sahnalashtirgan Rizo Rugi havaskor drama teatri katta iz qoldirdi. Teatr truppassi tarkibida iste'dod turk aktyori Muxsin Ertugrul (1892-1979) bor edi. U keyinchalik zamonaviy turk teatrining asoschisi bo'ldi. Mashhur Vagram Papazyan aktyorining ta'siri hamda Istambulga teatr gastrollari bilan kelgan Fransuz aktyorlari o'yinidan taassurotlangan M.Ertugrul 1911 yilda Fransiyaga boradi. Aynan o'sha yerda Fransiyada u ilk bor rus teatri bilan tanishadi. Vataniga qaytgandan so'ng 1912 yilda M.Ertuglu "Xamlet"ni sahnalashtiradi.

Bu davrda teatrlar repertuariga XX asrning 2 yarmida ijod qilgan turk yozuvchilarining, ya'ni Namq Kemal, Shamsiddin Sami, Ahmed Mitxat, Abdulhaq Xamidning asarlari kiritildi. Sahnada janob Shahobiddin, Xolid Ziyo, Aka Yunduza, Rashid Nuri, Xalid Faxriy, Yusuf ZIyo kabi zamondoshlarning pessalari qo'yilar edi, teatr truppalarini mamlakat bo'yicha gastrollarni boshlab yubordilar. Konstitusion o'zgarishlar natijasida vujudga kelgan muhitda teatr jamoalari adolat va tenglik masalalari, usmoniy hokimiyatning zulmi yoritilgan asarlarni sahnada qo'yishga lozim topdilar.

Aktyorlarning alohida kichik jamoalarini paydo bo'lishi milliy turk teatrini yaratish g'oyasini vujudga keltirdi va Istambulda munisipalitet qo'li ostida 1914 yilda "Go'zallik uyi" yoki "Usmoniyarning san'at ehromi – "Darul bedayi usmoni" deb nomlangan teatrga asos solindi. Bu milliy teatrni yaratishga bo'lgan birinchi jiddiy harakat edi. Bu teatr qoshida aktyorlarni tayyorlash uchun musiqali va dramatik maktablarni ta'sis etish nazarda tutilgan edi. Teatrga rahbarlik qilish uchun mashhur Fransuz aktyori va rejissyori Antuonni taklif qilishdi. Teatr tomi ostida to'plangan turk san'ati vakillari ijodiy izlanish holatida edi, ular orasida Muhsin Ertugrul ham bor edi (keyinchalik u o'zining "Ferax" mustaqil teatrini yaratadi). Birinchi jahon urushi "Darul bedayi" teatrining me'yoriy faoliyat yuriitishiga halaqit berdi va u aslida o'z faoliyatini to'xtatdi.

Kichik turk inqilobidan so'ng sahnaga ilk bora turk ayollari qadam boshdilar. "Darul bedayi usmoniy" teatri qoshida teatr san'atidan ta'lrim olgan birinchi turk ayollari Afifa, Bexri, Memduxa, Beyza, Refikalar dinyi ulamolar va hukumat tomonidan quvg'inga uchrashilar va sahnani tashlashga majbur bo'ldilar.

1925 yil turk teatrining tarixida "Ferax" teatri davri deb nomlanadi, chunki aynan o'sha paytda sahnada yorqin avangard spektakllar paydo bo'ldi, ular qatoriga L.N.Tolstoyning "Kreyser sonatasi" ham mansub edi, unda M.Ertugrul bosh rolni o'ynadi va spektakl "Sarguzasht" deb nomlangan edi. 1924-1925 yillarning 5 oy davomida teatrda 23 ta pesa sahnalashtirildi, ammo mablag'lar yo'qligi tufayli teatrni yopishdi. 1927 yilda M.Ertugrul A.Lunacharskiyning taklifiga ko'ra, sovet ittifoqiga tashrif buyurdi, bu yerda u mashhur teatr arboblari

bilan uchrashdi va ularning tajribasidan bahramand bo'ldi. M.Ertugrul Moskvada bo'lgan vaqtida barcha pesalarini tomosha qilgan Vsevolod Meyerxold haqida maqola yozdi. 1927 yilda M.Ertugrul "Darul bedayi" teatrining bosh rejissyori etib tayinlandi, bu teatrga boshchilik qilgan M.Ertugrul nafaqat repertuarni almashtirdi, uning rahbarligi ostida ishning vaqt chegaralari o'rnatildi, o'ziga xos aktyorlik nizomi qabul qilindi.

Bu bilan bir paytning o'zida san'at vakillari tomonidan olg'a surilgan talablarga muvofiq 1927 yilning 25 iyunida konsert va ma'rifiy xarakterdag'i tomoshalarni sog'liqqa tortishdan ozod etishni nazarda tutgan qonun qabul qilindi. Bundan so'ng Turk respublikasidagi san'atlarning bosh turlaridan biri bo'lgan teatr san'atida muhim o'zgarishlar bo'ldi: zamonaviy asbob-uskunalar muammoi birgalikda ko'rib chiqildi.

Turk teatrining tarixi uzoq o'tmishtdan ma'lum. Turk teatrining turlari bu – qora ko'z, qo'g'irchoq, renessans davridagi Italiya xalq teatriga o'xshash meddaxlarning ijodi hamda o'rta o'yin teatridir.

Tanzimat davrida turk teatrida xorijiy pesalar bilan bir qatorda mahalliy mualliflarning pesalari sahnalashtirildi. Turk teatri tarixida tub burilishga Shinosisyning bir aktli "Shoirning uylanishi" komedyasi sabab bo'ldi. Respublika davrida teatrni modernizatsiyalash yo'lidagi ilk qadam 1927 yilda qo'yildi – bunda "darul bedayi usmoniy" konservatoriyasiga Muhsin Ertugrul boshchilik qila boshladi, 2 yildan so'ng u "Istanbul shahar teatri" deb nomlandi.

1949 yilda davlat opera va balet teatrini yaratish haqidagi qonun qabul qilindi. 1970 yillardan boshlab madaniyat va turizm vazirligining bosh boshqarmasi sifatida faoliyat yuritayotgan teatr o'zining barcha turli provinsiyalardagi teatr boshqarmalari bilan birgalikda butun Turkiya bo'yicha tomoshabinlarga o'z spektakllarini namoyish etdi. Ikki tomonlama madaniy aloqalar doirasida hamda maxsu staklif va festivallar doirasida xorijda quyidagi pesalar namoyish etildi: Germaniyada "Bu tush", "Ayriliq", Bolgariyada "Go'zallik qirolichasi Linana", Fransiya, Germaniya va Gollandiyada "Yuk mashina", Gollandiya, Germaniya va Belgiyada "Farxon va Shirin", Eronda "Afsonaviy ayollar".

1960 yillarda xususiy teatrlar sonining o'sishi va ularning faoliyatining faollashuvi kuzatildi. 1955 yilda asos solingen "Dor men" teatri mavzu, ishslash tizimi va sahnalashtirayotgan pyesalar nuqtai nazaridan 1960 yillarda ommaviylashgan teatr muassasalaridan biri edi. 1961 yilda yaratilgan O'ral O'g'lu teatri va 1 yildan so'ng asoslangan Gulris Sururiy Enginjizzar jamiyatni oxirgi paytgacha o'zining sahnaga qo'ygan spektakllarining darajasi va sifati bilan ajralib turar edi. 1963 yilda ta'sis qilingan va hozirgi paytgacha ham o'z faoliyatini yuritayotgan Anqara san'at teatri o'z spektakllari va ularning badiiy ahamiyati va qimmatliligi bilan mashhur bo'ldi. 1960-70 yillarda ko'plab xususiy va bolalar teatrlariga asos solindi.

MEŞRUTİYET TEATRİ

Meshrutiyet tomoshabin teatri davrining o'zidan oldingi bva keying davrlarga qaraganda birqancha ajralib turadiga va, o'ziga jalb qiluvchi qiziqarli tomonlari border. Bu o'ziga hosliklardan biri bo'sa teatr tomoshabinining holatidir. Mustabid tuzumdan keyin bu teatrlar ochilgan, xalq ozodligi e'loni oldida jo'shqinligini, shodligini aks ettiruvchi bir aksini teatrdan topgan edi. Teatr eski davr uchun his qilingan nafrat, yangi bir jamiyat hayotiga kirib kelish bahsh etgan sevinchni o'zida aks etgan edi. Teatrga bo'lgan ehtiyoj ortgan edi.

Tanlab olingen o'yinlar eski davrning taqiqlangan o'yinlari bilan, yangi davr hayotiga yashash tarziga mos bo'lishdan tashqari spektakllarning bir qancha o'ziga hos hususiyatlari ham xalqni o'ziga jalb qilar edi. Bu namoyishlardan tushgan foydaning aholiga sarflanishi (yangi bir urush kemasining olinishi, kambag'allarga yordam berilishi hamda qo'shinga sarflanishi) kabi "milliy manfaat uchun "sarflanishi namoyishlar bilan birgalikda olovli nutqlar o'qilishi, xalqning osha paytdagi hoyotiga mos kelar edi.

Meshrutiyetning erkinlik e'loni bilan, konstitutsiyaning tartibga keltirilishi bilan hamma narsa o'z o'rniqa tushadi deb hisoblaydigan xalqning o'y fikrlari xato bo'lib chiqdi. Hamma narsaning birdaniga amalga oshishini xohlagan xalq uchun sabrsizlik, jamiyat boshqaruvida so'zga egalik qilish bo'yusunishi keltirib

chiqargan tartibsizlik va g'alayon katta bir kansitish tuyg'usi va umidning uzulishiga olib keldi. 31- martda bo'lib o'tgan silkinish tufayli teatrga yana bir masulyat yuklanar edi. Trablus yoki Bolqon urushi deysizmi, xalqni vahimaga soladigan darajada yog'ilib kelar edi. Hatto xalqning umid uchquni, teatrga nisbatan Meshrutiyetning ilk kirib kelgan kunlariga qaraganda ancha so'nib qolgan edi. Bu paytda reaksiyachilar ham teatrga qarshi hujumlarini kamaytmadilar. Teatrning bir o'rnak tomoni bo'lmasada, teatrning bir ikki soat ichida beradigan ta'lim kuchining, din minbaridan turib besh daqiqada beraolish mumkinligi ilgari surilar edi. Hali hamon ayol va erkak tomoshabinlar alohida o'tirishar edi. Aynan bir xil bo'lgan teatr tomoshalari kunduz ayollarga, kechasi esa erkaklarga qo'yib berilar edi. Hokimiyat partiyasi ayol haq huquqlarini himoya qilishga urinar, lekin hali bu narsa ayol va erkaklarning birgalikda teatr tomosha qilishlari uchun yetarli emas edi. Bir qancha voqealar buni isbotlar edi. 1909-yilning fevral Izmirning mashxur teatrlaridan biri bo'lgan "Sporting club" da Ittifoq va Taraqqiyot partiyasi bir teatr qo'ydi. Unga ayollar ham kelishni xohlagan va ularning bu taklifini partiya boshqaruvchilari ham qabul qilishgan. Ammo teatr ishqibozlari qo'llarida pichoqlar bilan teatrni o'rab olishib, teatrga keladigan ayollarni o'ldirishlarini aytishgandi. Natijada bu vaziyat Meshrutiyet teatri davrining ohirgi yillarigacha davom etdi. Bir gazetada teatr va kinolarga ayollarning erkaklar bilan birga borishlari va yonma yon o'tirishlari na islom diniga, na jamiyat ahloq qoidalariga mos kelardi. Erkaklar bilan birga teatrga borishni xohlagan musulmon ayollari erkak qiyofasiga yoki xristian ayollardek kiyinishardi. Aslida esa xoh erkak xoh ayol bo'lsin, zamonasining ziyyolilari tomonidan ma'lum qilinishicha, hali hamon teatrning haqiqiy tomoshabini yo'q edi. Tomoshabin osha davrning teatr ishtiyoqiga, jo'shqinligiga moslashgan holda teatlarga borishar, lekin aksariyat sahnada bo'lib o'tgan voqealarni tushunmas, ko'pincha sahnada bo'layotgan voqealar bilan qiziqishmas, olomon bir joyda to'planganligidan zavq olishardi. Davrning teatr dunyosini o'zida aks maqolalar yozilar edi. Bunday maqolar uzlusiz nashriyotlarda chop etilib turar, ular aksariyat hollarda teatr kitoblarining ohiridan yoki boshidan joy olar, yoki bo'lmasa teatrlarning

namoyishidan oldin aytib o'tilar edi. O'tgan asrda bo'lgani kabi o'sha davrda ham yozuvchilar teatrga xalq saviyasini, bilim darajasini oshiruvchi bir vosita sifatida qarar edi.

1. Meshrutiyetda aktyo'rlik va teatr san'ati – o'tgan asrda armanlar harakati bilan rivojlangan teatr aktyo'rligida, sanoqli bo'lsada turk erkak aktyo'rlar ham bor edi. O'sha davrning tanqidchilari o'sha davrning aktyo'rlarida ikkita asosiy kamchilikni keltirishadi. Bulardan birinchisi, sahnada ro'l o'ynash uchun tayyor bo'limgan yosh aktyo'rlearning sahna tilidagi kamchiliklari, ikkinchisi esa ularni bu ishga qo'shimcha bir kasb sifatida qarashlaridir. Ular ko'p ro'llarni almashtirganliklari uchun sahnaga tayyorlanmay turib matnni yodlamasdan chiqishardi. Har kimning ovozini eshittirishni xohlashi, boshqarishda ishtirot etish havasi hechbo'lmasa notiq bo'lismashni istagi teatrda ham o'zini ko'rsatgan edi. Hech sahma tajribasi bo'limgan darhol o'zinin sahnada topar edi. O'z mashg'ulotlari oldida bir ikki ko'rinishda o'zlarini ko'rsatish uchun yoshlar bellashar edi.

Bu davrning mashxur bo'lgan teatrining rivojlanishida katta yordam qilgan, mashxur teatr hodimlari va aktyorlari quyidagilar: Mardiroz, Minakiyan, muhsin, Ertug'rul, Eliza, Benemejiyan, Kemal, Emin, Jemal Sahir, Sara Manik, Kinar va b. o'yinlarga ko'ra bu davrda uch asosiy muammoga duch kelamiz bular: 1. Ayol ro'li muammo; 2.aktyorlikning sayi harakatli bo'lismidagi to'siqlar; 3. Aktyorlarning yetishmasligi.

1. Tanzimot davrida ayollarni odatda Arman yoki boshqa etnik guruhga mansub xristian ayollar o'ynar edi, faqat erkak Arman aktyorlar uchun ko'zda tutilgan muammolar Arman ayol aktyorlar uchun ham o'tar edi. Bu davrning teatr tanqidlari ko'zdan kechirilsa, o'tgan yuz yilda b'lgani kabi eng ko'p muammo shu muammo ustida to'xtanilar edi. Armancha sheva bilan turk tilida gaplashilishi odamlarni turk ayoli bo'lgan mahalliy o'yinlarda turk xalqini yanada bezovta qilyotgan edi. Eliza Benemejiyan, Halid Ziya Ushakligil va Ismayil Mushatakdandan adabiyotni o'rgangan. Sahnada turk ayolini ko'rishning sog'inchini tiga ola boshlagandilar. Ayollarga teng huquqlarning berilishi, o'ranishdan voz kechilishi ayol erkak ajralishining yuzaga kelishi bosh mavzulardan biridir. Puldor oilalar

qizlarini chet el maktablarida o'qitar edilar. Qo'liga qlam ushlagan ziyoli ayollar yetishib chiqayotgandi.

